

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida
UDK:336.7

ALIKULOV MA'RUF MANNONOVICH

**INNOVATSIYA LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH VA
AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI**

**5A230603 – “Investitsiyalarni boshqarish”
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. D.Yu.Xo'jamqulov**

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INNOVATSIYA LOYIHALARINI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	8
1.1. Innovatsiyaning iqtisodiy mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati.....	8
1.2. Innovatsiya loyihalarining mazmuni, ularni ishlab chiqishning nazariy asoslari.....	16
1.3. Innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslari....	28
I bob bo'yicha xulosa.....	36
II BOB. INNOVATSIYA LOYIHALARNI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	38
2.1. Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlili.....	38
2.2. O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlili.....	49
2.3. "Rubicon wireless polimer" innovatsiya loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili....	61
II bob bo'yicha xulosa.....	65
III BOB. O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYA LOYIHALARINI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	68
III bob bo'yicha xulosa.....	76
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzini yanada oshirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda har bir davlat o'z iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda innovatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda.

Shu maqsadda respublikamizda "... iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni ..." ¹ amalga oshirishga ustuvorlik berilgan.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish investitsiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish imkonini beradi. Shu sababli mamlakatimizda innovatsiya siyosatini olib borishda investitsiyalarning samarali ishtirokini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqdaki, buning natijasida milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, ular yordamida ishlab chiqarishga joriy etilayotgan zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihalarning sonining yil sayin ortib borishini, shuningdek, yalpi ichki mahsulotning yuqori su'ratlar bilan o'sishini ta'minlamoqda.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 19.

xususiyati mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2014 yilda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi¹.

Biroq, bugungi tezkor o'zgarish va yangilanishlar davrida mazkur yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, yangidan-yangi, bugungi hayotimiz talabiga asoslangan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning predmeti bo'lib, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib innovatsiya faoliyatining asosi bo'lgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsiya loyihalari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- innovatsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etish va uning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyatini ochib berish;
- innovatsiya loyihalarining mazmuni va ularni ishlab chiqishning nazariy asoslarini o'rganish va yoritish;

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. // "Toshkent oqshomi" gazetasi, 2015 yil 20 yanvar, №11. – B. 2-3.

- innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslarini yoritish;
- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- innovatsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati tadqiq etildi va uning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati ochib berildi;
- innovatsiya loyihalarining mazmuni yoritildi va ularni ishlab chiqishning nazariy asoslari o'rganildi;
- innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslarini yoritildi;
- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilindi;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilindi;
- O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish va shuning asosida innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni rivojlantirishga erishishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Innovatsiya faoliyati, uni tashkil etish, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va moliyalashtirish, boshqarish hamda u bilan bog'liq xorij tajribalari yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan ko'plab xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Jumladan, Y.Shumpeter, I.T.Balabanov, A.B.Borisov, V.G.Medinskiy,

V.V.Glushchenko, I.I. Glushchenko, V.L.Popova, A.N.Folomev, V.V.Glushchenko, I.I.Glushchenko, V.F.Baynev, V.V.Saevichlar ilmiy-tadqiqotlarini olib borganlar va asarlarini yaratganlar.

Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy asoslari, uni moliyalashtirishning ahamiyati, milliy xususiyatlari va amaliyotiga oid masalalar mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan R.I.Gimush, F.M.Matmurodov, B.E.Toshmurodova, N.Jiyanova, D.X.Suyunov, M.N.Ravshanov, M.Sh.Butabaev, E.Egamberdiev, X.Xo'jaqulov, D.G'.G'ozibekov, AE.I.Nosirov, A.M.Kadirov, S.G.Sevlikyants, O.E.Otto, A.T.Axmedova, B.Mamatov, D.Xo'jamqulovlarning ilmiy ishlari va asarlarida tadqiq etilgan va yoritilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, sintetik, qiyosiy, induktiv, deduktik, mantiqiy va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish va unga oid kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" va "Investitsiya loyihalarini boshqarish" kabi fanlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 89 bet, 7 ta rasm, 9 ta jadval va 2 ta formuladan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ob’ekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Ishning birinchi bobi “Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy va uslubiy asoslari” deb nomlanib, unda innovatsiyaning iqtisodiy mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati, innovatsiya loyihalarining mazmuni, ularni ishlab chiqishning nazariy asoslari, innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslari tadqiq etilgan va yoritilgan.

Ishning “Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish amaliyoti tahlili” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlili, O’zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlili, “Rubicon wireless polimer” innovatsiya loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili olib borilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Ishning uchinchi bobi “O’zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirish yo’nalishlari” deb atalib, unda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni yanada rivojlantirish yo’llari o’rganilgan va yoritilgan.

Ishning xulosa qismida tadqiq etilgan mavzu yuzasidan umumiy xulosalar shakllantirilgan hamda O’zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

I BOB. INNOVATSIYA LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

1.1. Innovatsiyaning iqtisodiy mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash hisoblanadi. Buning uchun bazaviy sohalarda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangi va zamonaviy texnologiyalarni faol joriy qilish va modernizatsiyalashni jadallashtirish orqali tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va mutanosiblikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish lozimdir.

Bunda mazkur maqsadga erishishda, xususan, bugungi kunning ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish, ishlab chiqarishda eng ilg'or va so'nggi avlod texnologiyalarini joriy etish, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida innovatsiyalarning rivojlanishiga e'tiborni yanada kuchaytirish va bunda innovatsiyalar sohasida xorijda yaratilayotgan yangiliklar va tajribalarga suyanib, ularni o'z iqtisodiyotimizga ko'chirib olib kelish bilan chegaralanib qolmasdan, balki, milliy amaliyot va yutuqlarimiz bilan yuqori darajalarga erishish, buning uchun barcha imkoniyat va salohiyatlarimizni ishga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning ijtimoiy yo'naltirilgan kuchli demokratik davlatni barpo etish yo'lidagi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida keng ko'lamli modernizatsiyalashni amalga oshirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan tejimli va samarali foydalanishga qaratilgan innovatsiyalarni joriy etish, buning uchun turli mulk shaklidagi xo'jalik sub'ektlarining mazkur jarayonda faol va samarali qatnashishini ta'minlash, buning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga asoslanganligi

innovatsiya faoliyati va uni moliyalashtirishni tashkil etish va takomillashtirish hamda u bo'yicha tadqiqotlar olib borishni taqazo etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda tadbirkorlik faoliyati erkinliklari va qulay muhitining yaratilganligi, ochiq raqobat sharoiti va yuqori iqtisodiy manfaatdorlikka erishish imkoniyatlari tadbirkorlarning o'z faoliyatini tashkil etish, kengaytirish va o'zgartirishlarida innovatsiya loyihalarini joriy etishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirmoqda. Bu esa mamlakatimizda innovatsiyaning mazmun-mohiyatini kengroq o'rganish, innovatsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishga bo'lgan munosabatlarning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan, innovatsiyaning o'zi nima, degan savolga to'liq javob topish unga bo'lgan munosabatni to'g'ri belgilash va tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Innovatsiya” tushunchasi birinchi marta XX asr boshlarida xorijlik madaniyatshunoslar ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan va qo'llanilgan bo'lib, bir madaniyatning ayrim elementlarining boshqasiga joriy etilishini bildirgan.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “innovato” so'zidan olingan bo'lib, yangilash va yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Umumiy mazmunda mazkur atama odamlar tomonidan, asosan, ayni paytda va muayyan vaqtda yangi deb qabul qilingan madaniyatning moddiy yoki nomoddiy qadr-qiymati sifatida tushunilgan. “Innovatsiya” atamasining texnik-texnologik yangiliklarni joriy etish sohasida qo'llanilishida keyinchalik kirib kelishi kuzatilgan.

Mazkur atamaning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki, har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa (tijoratlashish), o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtdan boshlab yangi sifat – innovatsiya (yangilikni joriy etish)ga aylanadi.

“Innovatsiya” atamasi bugungi kunda juda keng qo'llanilishi uning mazmun-mohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababdan mazkur atamaning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etgan va

ochib bergan ayrim iqtisodchi-olimlarning qarashlarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Jumladan, rus iqtisodchi-olimi I.T. Balabanov fikriga ko'ra: “innovatsiya – nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o'zida namoyon etadi”¹.

Shuningdek, A.B. Borisov innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: “innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijoiy faoliyat natijasini anglatadi”².

V.G. Medinskiy olib borgan izlanishlari asosida quyidagi xulosaga kelgan: “innovatsiya sifatida olib borilgan ilmiy-tadqiqot yoki avvalgiga o'xshash turidan sifat jihatdan farq qiluvchi yangisining yaratilishi natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan ob'ekt tushuniladi”³.

Rus olimlaridan V.V. Glushchenko, I.I. Glushchenkolarning mazkur atamaga bergan ta'riflari quyidagichadir: “innovatsiya – tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning firma darajasidagi tashkiliy shakllarning yangi turlarini ishlab chiqish, tayyorlash va tarqatishga yo'naltirilgan ijodiy va investitsion faoliyat natijasi”⁴.

R.A. Fatxutdinov esa “innovatsiya – ob'ektni boshqarishni o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa turdagi samarani olish maqsadida yangilikni joriy etishning yakuniy natijasi”, deb baholaydi⁵.

Shunga o'xshash ta'rifni V.L. Popov tomonidan ham berilgan bo'lib, unga ko'ra: “Innovatsiya – bozorda sotiladigan yangi turdagi yoki takomillashgan mahsulotning, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologik

¹ Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2001. – С. 41.

² Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – С. 185.

³ Мединский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 28.

⁴ Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2004. С.30.

⁵ Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2004. – С. 19.

jarayonning amalga oshirilishini hosil qiluvchi innovatsiya faoliyatining yakuniy natijasi”¹ deyilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham “innovatsiya” atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha katta izlanishlar olib borishgan va o'zlarining zamonaviy talqindagi ta'riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R.I. Gimush, F.M. Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda “yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim”, deya ta'rif berilgan².

B.E.Toshmurodova, N.Jiyanovalar fikriga ko'ra: “innovatsiya tushunchasi o'z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxona ishi usulidagi barcha yaxshi o'zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi”³.

Jahon banki tomonidan mazkur atama mazmuniga berilgan ta'rifda ham o'ziga xoslikni ko'rish mumkin: “innovatsiya – texnologiyalarni anglatadi yoki ushbu jamiyatda nimadir yangi narsa amaliyotda qo'llanilishini anglatadi”⁴.

Umuman olganda, innovatsiyalar mazmuni bo'yicha boshqa iqtisodchi-olimlarning nazariy qarashlarini yana ko'plab keltirish mumkin. Biroq, olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida biz o'zimizning quyidagi ta'rifni ishlab chiqdik va uni bugungi kunda mazkur atamaning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib berishga etarlicha xizmat qiladi, deb o'ylaymiz: *innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi.*

Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari

¹ Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11.

² Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jami- yati nashriyoti, 2008. – B. 10.

³ Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – B. 11.

⁴ Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. – P.28.

va hokazo) foydalanishni anglatar ekan, mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rangba-rang va turli-tuman ko'rinishga ega.

Innovatsiyalarning qudrati jamiyat turmush-tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu munosabat bilan innovatsiyalardan keng va samarali foydalanish O'zbekiston davlati uchun bugungi kunda o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va rivojlantirish, xususan, korxonalar darajasida zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishda uning ahamiyati yanada yuqori baholanadi.

Asosiy vositalarning moddiy va ma'naviy eskirishi voqelikning ob'ektiv qonuniyati bo'lib, uni to'xtatib qolish qolish mumkin emas. Biroq, asosiy vositalarni rekonstruksiyalash, aktivlarni restrukturizatsiyalash, yangi texnologiyalar asosida innovatsiya kiritish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish orqali korxona faoliyatini yangilash mumkin. Shuning uchun, respublikamiz korxonalarining aksariyati uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviylashtirish o'tkir dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu masalada "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur"¹, - deya bildirgan fikrlari innovatsiyaning naqadar muhim o'rin egallashini yana bir bor tasdiqlaydi.

Korxonani modernizatsiyalash o'z mohiyati bo'yicha kengroq ma'no kasb etadigan restrukturizatsiyalashning bir qismi sifatida qabul qilish mumkin. Korxonada o'tkazilish usullariga ko'ra restrukturizatsiyaning quyidagi o'zaro

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. – T: «O'zbekiston» NMIU, 2010, 78 b.

bog'liq yo'nalishlarini ajratish mumkin:

- *korxona ko'lamini o'zgartirish*, ya'ni kengaytirish (birlashtirish, qo'shilish va b.) va qisqartirish (bo'lish, ajratib chiqarish va b.);

- *mulikka va korporativ nazoratga ta'sir o'tkazish* (qayta tashkil etish), ustav fondini restrukturizatsiyasi (aktsiya yoki ulushlarning emissiyasi, sotilishi, sotib olinishi, konvetatsiyasi), kreditorlik qarzdorlikni restrukturizatsiyasi (so'ndirish, hisobdan chiqarish, muddatini surish, sotish va b.) yo'li bilan;

- *korxona faoliyatining ichki tuzilmasini o'zgartirish orqali*: tashkiliy tuzilmasini qayta qurish (vakolatlarning qayta taqsimlanishi, boshqaruv xizmatlarining ishi va vazifalarining o'zgartirilishi va h.);

- *ishlab-chiqarish tuzilmasini qayta tashkil qilish* (ishlab-chiqarishni modernizatsiyalash, moliyaviy javobgarlik markazlarini yaratish, boshqa ichki imkoniyatlarni topish va ishga solish)¹.

Modernizatsiyalash ma'lum bir strategiya doirasida amalga oshiriladi. Bizning holda strategiya – bozorlarning va huquqiy tizimning holati, ichki va tashqi korxonalar bilan raqobatchilik kabi korxonaning hozirdagi va kelajakda tushib qolishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda korxonaning boshqaruvchilik, texnik, moliyaviy va boshqa resurslarini ishlatish va takomillashtirish haqida qaror qabul qilishdir. Strategiya mahsulot nomenklaturasi va ishlab-chiqarish hajmlari, sotish bozorlari, xom ashyo va investitsiya manbalarini o'z ichiga oluvchi restrukturizatsiyaning turli bosqichlarida korxona rivojlanishining, xususan, uning modernizatsiyasining asosiy yo'nalishlarini belgilab berishi lozim.

Umuman olganda strategiya quyidagi muqobil variantlarga ega:

- *qisqartirish*, ishlab-chiqarishni restrukturizatsiyasi hisobiga faoliyatni yaxshilash yoki yo'nalishini o'zgartirish uchun korxona o'zi intiladigan ko'rsatkichlarni oldin erishganga nisbatan pasaytiradi;

- *turg'unlik*, ya'ni korxonaning ichki va tashqi faoliyatini qisman qayta

¹ Суюнов Д.Х., Равшанов М.Н., Бутабаев М.Ш. Корпоративное управление хозяйствующих субъектов. – Т.: Академия, 2006. – С. 485.

qurish davomida bozorda va tarmoqda egallangan pozitsiyalarni saqlab qolinishi. Odatda, cheklangan hajmda bir sohalarida o'sish va boshqa (asosiy bo'lmagan) sohalarida qisqartirishdek o'zaro raqobatda bo'lgan strategiyalarni qo'shib olib borish bilan ta'minlanadi;

- *cheklangan o'sish*, raqobatchilik asosida rivojlanish varianti bo'lib, inflyatsiya va boshqa tashqi omillarni hisobga olib to'g'rilangan natijalarga tayanadi. Odatda, o'zgarmas ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lgan va murakkab texnologik jarayonlarni qo'llaydigan tarmoqqa mansub bo'lgan, uzoq hayot tsikliga ega an'anaviy mahsulot bilan bozorda mustahkam o'rin egallagan va barqaror foydalilik darajasiga erishgan korxonalar tomonidan ishlatiladi;

- *o'sish*, birinchi navbatda, tovarlari tez-tez o'zgarib turadigan va yangilanib turadigan tez rivojlanuvchi tarmoqlarda ishlatiladi. O'sishning yuqori ko'rsatkichlari ichki omillar hisobiga ta'minlangan bo'lishi mumkin (nomenklaturaning kengayishi, an'anaviy nomenklaturali bozorda faol ish olib borish va b.). Mazkur strategiya yuqori natijalarga erishishga imkon beradi, biroq, to'lov qobiliyati yo'qotilishining katta ehtimolligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun, korxona maqsadlariga erishilishini, kerak bo'lgan resurslarni baholashning aniq nazorati o'rnatilishini, zaruriyat bo'lganda butun xo'jalik faoliyatini tezkorlik bilan qarab chiqishni talab qiladi.

Tanlangan strategiya va restrukturizatsiya asosida joriy va istiqbolli biznes-rejalar ishlab chiqiladiki, ularda rejalashtirish muddatlariga mutanosib bo'lgan aniqlik bilan korxonada qayta qurollantirish, innovatsiya kiritish va modernizatsiyalash masalalarida aniq chora-tadbirlar belgilanadi. Modernizatsiya korxona tomonidan mustaqil ravishda yoki o'zi tarkibiga kirgan xo'jalik birlashmasi (onalik kompaniyasi, xolding kompaniyasi va b.) yordami bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ko'pgina korxonalar modernizatsiyani amalga oshirishda davlat ko'magiga muhtoj bo'lib, ular quyidagi shaklda bo'lishi mumkin:

- korxonalarni modernizatsiyalash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy materiallar bilan ta'minlash;

- korxonalarni moliyaviy qo'llash, (byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni hisobdan chiqarish yoki muddatini kechiktirish, foydaning modernizatsiyaga yo'naltirilgan qismi bo'yicha soliqlarni kamaytirish va b.);

- davlat investitsiyalarini taqsim qilishda va mahsulot etkazib berish bo'yicha davlat buyurtmalarini joylashtirishda modernizatsiya qilinayotgan korxonalarga ustunlik berish;

- korxonalar rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil qilish va b.

Bozor munosabatlari takomillashib va xalqaro iqtisodiy aloqalar integratsiyasi chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarni doimiy ravishda modernizatsiyalab borish zarur bo'ladi. Past samarali va zarar bilan ishlovchi korxonalarni tugatish, ularni qayta tarkibiy tuzish asosida tarmoq va sohalarni moliyaviy sog'lomlashtirish davlat siyosatining muhim natijasidir.

Hozirgi globallushuv zamonida korxona faoliyati samaradorligini xarakterlovchi muhim mezonlardan biri eksportga tovar chiqarish imkoniyatidir. Buning uchun modernizatsiya qilish orqali korxonalarga yangi texnologiyalar olib kirilishi zarur bo'ladi. Umuman olganda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma'nan eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy qilish;

- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish va sh.k.

Biroq, O'zbekistonda innovatsiya faoliyatining rivojlanishi xalqaro talab darajasida emasligi, innovatsiya muhitini yanada takomillashtirish zaruriyati, mazkur sohani yanada rivojlantirish borasida davlat islohotlarini yanada izchil davom ettirish lozimligi quyidagi muammolarning mavjudligi va ularga echim

topish zarurligi bilan beliglanadi:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo'lishi uchun transaksiya xarajatlari juda katta;
- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun juda katta;
- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng qamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;
- xususiy sektordagi ko'plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmagan;
- fanni ishlab chiqarish bilan bog'lab turishi mumkin bo'lgan innovatsion vositachilar institutining rivojlangan tarmog'i yaratilmagan;
- raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga etarli darajada rag'batlantirmaydi;
- iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag'larni namunaviy tovarlar ishlab chiqish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an'anaviy yondushuvlari ustunlik qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning barchasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiya muhiti ma'lum ma'noda iqtisodiy va institutsional islohotlarning turli yo'nalishlaridagi taraqqiyotga bog'liq bo'ladi. Lekin bu aslo innovatsiyalarni "yorug' kunlar kelguncha" esdan chiqarish lozimligini anglatmaydi. Iqtisodiyotda innovatsion mexanizmlarni ishga tushirish strategik ahamiyatga ega vazifa bo'lib, uni kichik narsalardan boshlash va davlat tomonidan katta ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq.

1.2. Innovatsiya loyihalarining mazmuni, ularni ishlab chiqishning nazariy asoslari

Ilmiy texnik, texnologik yangiliklarni amaliyotga joriy etish innovatsiya

loyihalarini¹ ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish bilan yo'lga qo'yiladi. Innovatsiya loyihalari, bizningcha, shakllantirilgan yangi texnik, texnologik g'oyalarni, ilmiy jihatdan asoslangan texnik, texnologik ishlanmalarni kuchli raqobat muhitida, makon va zamonda aniq maqsadlarga erishish uchun ehtimoli bo'lmish risklar asosida belgilangan muddatlarda amaliyotga joriy etilishiga qaratiladi va innovatsiya jarayonining keyingi uzviy ravishda bog'liq bo'lgan bosqichlarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish mustaqillik yillaridan boshlab yangi rivojlanish tarixiga ega bo'lib kelmoqda, natijada har yili mahalliy xom ashyolarni qayta ishlash asosida jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsiya loyihalari ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim institutlari kafedralari, ilmiy bo'limlari olimlari tomonidan bajarilmoqda. Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish xorijiy ekspertlar ishtirokida xalqaro anjumanlarda sinovdan o'tkazilmoqda.

Har qanday investitsiya loyihasi kabi *innovatsiya loyihalari aniq maqsadga ega bo'lib, unga erishishning mavjud imkoniyatlari, ya'ni moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari, vaqt birligi (zamon va makonda) bilan birga doimo intellektual salohiyatga tayangan holda, yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan, aniq ma'lumotlar hisob-kitoblari, tahlillari asosida istiqbolga qilingan bashoratlarni o'z ichiga oluvchi kompleks hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.*

Innovatsiya loyiha¹ning asosiy maqsadlaridan biri – korxona yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsiya loyihasi” tushunchasi bir qancha nuqtai nazardan qaralishi mumkin:

– innovatsiya maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi

¹ Loyiha (ingl. - projekt) - bu “biron nima, nima o'ylanayapti yoki rejalashtirilayapti”, degan ma'nolarni anglatadi.

sifatida;

- innovatsiya faoliyatini amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsiya loyihasining innovatsiya faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

- a) investitsich loyihalari, masalan, yangi sanoat ob'ektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;
- b) ilmiy-texnik (innovatsiya) – ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat ob'ektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;

2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;

3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelyatsiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

4. Innovatsiya loyihalari ko'p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

Bizning nazarimizda, har qanday innovatsiya loyihasi uch tomonlama, ya'ni birinchidan, innovatsiya loyihasini tadbiq etish uchun zarur bo'lgan turli moliyaviy resurslar narxlari bilan, ikkinchidan, jami safarbar etiladigan kapital qiymati, bozor


munosabatlari talabidan kelib chiqib, tadbiq etilish vaqt birligi bilan, uchinchi, qo'yilgan maqsadga erishish ichki kuchi bilan cheklanadi. Bular bilan bir qatorda innovatsiya loyihalari tadbiq etilishi jarayonida ehtimoli bo'lmish risklarni boshqarishni ham talab etadi. Har qanday investitsiya loyihalari kabi innovatsiya loyihalari to'rt bosqichdan iborat bo'lmish hayotiy tsiklga, ya'ni investitsiya oldi, investitsiya va ekspluatatsiya hamda likvidatsiya (tugallanish) bosqichlaridan iborat hayotiy tsikllarga egadirlar. Innovatsiya loyihasi xususiyatlariga qarab, qayd etilgan to'rt bosqichda investitsiyalar turli nisbatda shakllanadi va turli manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Innovatsiya jarayoni ma'lum bir davrni o'z ichiga olib, yangilikni yaratishda ifodalanishi uning iqtisodiy samaradorligi bilan bog'liqdir. Chunki innovatsiya strategiyasi ishlab chiqarish jarayonida yangi fan-texnika yutuqlarini qo'llash asosida raqobatchi sub'ektlarga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishida ifodalanadi. Innovatsiya jarayoni tuzilmasi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Innovatsiya loyihalarining turlari, ularning hayotiy tsikllarining davomiyligiga qarab turlicha, ya'ni qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlari qanchalik tez shiddat bilan o'zgarsa, innovatsiya loyihalari hayotiy tsikllari muddatlari ham shunchalik qisqarib boradi.

Shunday qilib, yangilik yaratuvchi ijodkorlarning g'oyalari, ixtirolari, kashfiyotlari va h.k., ya'ni innovatsiya jarayonini asosini tashkil etuvchi novatorlarning mahsulotlari eksperimental tariqasida tekshirilib, innovatsiya loyihasi shaklida ehtimoli bo'lmish risklar asosida amaliyotga joriy etiladi. XXI asrda asosiy e'tibor texnik va texnologik yangiliklarni joriy etilishiga, energoresurslarni tejash texnologiyalariga asoslanadi.

Innovatsiya loyihasining hayotga tadbiq etilishi, har qanday investitsiya loyihasidek texnik-iqtisodiy asoslanishi, loyiha tahlilini jahon amaliyotida qo'llaniladigan dinamik usullari yordamida aniqlanadigan va kelajakda kutiladigan samaradorlik ko'rsatkichlarining maqbulligi bilan aniqlanadi. Innovatsiya loyihalari har qanday investitsiya loyihasi kabi tanlov asosida amalga oshiriladi.



1-rasm. Innovatsiya jarayoni tuzilmasi¹

Innovatsiya jarayonlarining rivojlanib borishida inson kapitaliga katta risklar ostida safarbar etilgan investitsiyalar, innovatsiya g'oyalari, ishlanmalar, ixtiro, kashfiyot va shu kabi yangiliklarni yaratilishiga, ya'ni innovatsiyalarni barpo etilishiga, ular negizida o'z navbatida innovatsiya loyihalarini shakllanishiga, texnik-iqtisodiy asoslash va tahlil o'tkazish yo'li bilan samaradorligini aniqlash, hamda tanlov asosida innovatsiyalarni tadbiq etish va moliyalashtirish qarorlari turadi.

¹Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Innovatsiya jarayonlari uzluksiz ravishda katta hajmda, avvalambor, inson kapitaliga investitsiyalar tikilishi bilan, ushbu jarayonlarning barcha bosqichlarida turli xil sohiblar tomonidan samarali innovatsiya faoliyati yuritilishi bilan, ular mahsuloti sifatida g'oya, ixtiro, kashfiyot, ilmiy-texnik ishlanmalar, innovatsiya texnikasi, texnologiyalar asosida, innovatsiya loyihalarining shakllanishi, texnik-iqtisodiy asoslanishi, tadbiq etilishi bilan tavsiflanadi. Innovatsiya jarayonlari uzluksiz doimiy tarzda yagona oqim sifatida davom etuvchi jarayonlardir. Bu jarayonlarda turli ilmiy - ijodiy yo'nalish sohiblari, ixtirochilar, kashfiyotchilar, yangi g'oyalarni ilgari suradilar, yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni asoslaydilar, ularni keyingi bosqichlarda amaliyotga joriy etadilar. Bir so'z bilan aytganda serqirralik innovatsiya faoliyatida band bo'lganlar o'zlarining mahsulotlari sifatida yangi texnik uskunalar, resurslarni tejovchi va mahsulotlar sifatini ko'taruvchi ilg'or usullarni qo'llash bilan chet el bozorlarida milliy iqtisodiyotimizni mavqeini mustahkamlaydilar. Ilmiy ijodiy soha sohiblari tomonidan yaratilgan innovatsiyalar, tizimlashtirilgan hujjatlar asosida innovatsiya loyihalariga shakllantiriladi. Innovatsiya jarayoni ishtirokchilari bo'lmish novatorlar, ya'ni innovatsiya faoliyati yurituvchilar sohasi, juda ham katta hajmda kapital sig'imli bo'lib, har doim ham naf keltiravermaydi. Bu sohaga kiritilgan investitsiyalar yuqori riskli bo'lib, kelajakdagi samarasi boshqa sohalarga nisbatan deyarli yuqori bo'lmaydi. Fan yutuqlarining barchasi ham amaliyotga innovatsiya sifatida tadbiq etilavermaydi, chunki bu borada vaqt omili katta rol o'ynadi.


Innovatsiya faoliyati, odatda, korxonalarda tashkil etiladi va rivojlanadi. Shu sababdan korxonaning innovatsion rivojlanish bosqichlarini quyidagi 2-rasm orqali ifodalash mumkin.

Biznes-rejani tuzishda asosiy masalalar sifatida quyidagilarga ajratish mumkin:

- innovatsiya loyihasini amalga oshirishda kutilayotgan moliyaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlar (sotish hajmi, mahsulot tannarxi, mahsulotdan keladigan foyda va boshqalar);

- bankning innovatsiya mahsuloti, mahsulot bozori, raqobatchilar haqida

ishlab chiqqan ma'lumoti;



2-rasm. Korxonaning innovatsion rivojlanishining asosiy bosqichlari o'zaro aloqasi²

- hamkorlar bilan aloqada korxonani tanishtiruvchi, rivojlantirish maqsadlari haqidagi reklama materiallarini tayyorlash.

Innovatsiya loyihasiga tayyorlangan biznes-reja quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- loyihani tashqi investorlar tomonidan moliyalashtirish imkonini olish;
- korxonaning innovatsion siyosatini ishlab chiqarish;

² Багиев Г.Л. и др. Международный маркетинг. – СПб.: Питер, 2001. – С. 33.

- bozor strategiyasini ishlab chiqarish; korxona rivoji uchun asosiy maqsadlarni aniqlash;

- mos keluvchi byudjetni shakllantirish.

Biroq, klassik investitsiya loyihasi bilan innovatsiya loyihasini solishtirganda quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

- ko'pchilik hollarda innovatsiya loyihasi unda hamkor korxonalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKIni o'tkazuvchi yoki innovatsiyalarni tadbiq etishda ishtirok etuvchilar)ni ko'zlagani sababli asosiy korxonaga to'g'ri keluvchi xarajat va natijalarni umumiy oqimdan ajratib olish muammosi vujudga keladi. Ushbu innovatsiya loyihasida qatnashuvchi innovatsiya faoliyati sub'ektlari soni ortib boradi. Innovatsiya loyihalari ko'pincha o'zining asosida yangi texnik echimlardan foydalanish bilan bog'liq. Bu esa, intellektual mulk ob'ektlariga xuquqiy portfeli shakllanishida, o'z nomoddiy aktivlar hisobiga yoki litsenzion kelishuvlar asosida olingan xuquqlar hisobiga muammo yuzaga keladi; innovatsiya loyihasi loyihaning ham texnik, ham tijoriy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajali noaniqlik bilan ajralib turadi. Bu esa, dastlabki moliyaviy iqtisodiy baholashning ishonchliligini pasayishiga olib keladi va qo'shimcha baholash mezonlarini qo'llash mo'ljallanadi;

- innovatsiya loyihasini amalga oshirishda asosiy e'tiborni ITTKI bosqichiga qaratilishi lozim. Bu bosqich natijasi asosida loyihani amalga oshirishni davom ettirish yoki to'xtatish xaqida tezkor qaror qabul qiladi;

- innovatsiya loyihasi yangi texnik echimlarni yaratishga nisbatan tijoriy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni olish uchun yuqori ehtimollik bilan ajralib turadi.

Innovatsiya loyihalari biznes-rejasini ishlab chiqishda uning alohida bosqichlarini ajratish muhim. Chunki har bir bosqich o'zida davrni namoyon etib, uni amalga oshirish bo'yicha ko'zlangan tadbirlar jarayonida o'tkaziladi.

Har bir bosqichning maqsadi keyingi bosqichga o'tish to'g'risidagi qarorni qabul qilishni hisobga oluvchi texnik informatsiya yig'ish hisoblanadi.

Innovatsiya loyihalari g'oyalar, fikrlar va texnik echimlarning ilmiy-texnik

ahamiyati darajasi bo'yicha quyidagi tarzda tasniflanadi:


- modernizatsion loyihalar, bunda namuna konstruksiyasi yoki asosiy texnologiya tub o'zgarmaydi;
- novator loyihalar, bunda yangi buyum konstruksiyasi turiga va elementlari xossalriga qarab oldingisidan jiddiy farq qiladi (yangi xossalarni qo'shish, masalan, ushbu turdagi buyumlarda ilgari qo'llanilmagan avtomatlashtirish vositalarini, lekin boshqa turdagi buyumlarda qo'llangankiritish);
- ilgarilab boruvchi, bunda konstruksiya ilgarilab boruvchi echimlarga asoslanadi;
- oldingi va hattoki, yangi funktsiyalarni bajaradigan konstruksiyalar va texnologiyalar.

Loyihaning ahamiyat darajasi uning murakkabligi, davomiyligi, ijrochilar tarkibi, ko'lam, natijalarni ilgari surish xususiyati bilan belgilanadi, bu loyihani boshqarish mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqishda zamonaviy innovatsiya loyihalari, odatda, katta investitsiyalarni talab qilishini, ular esa doim ham bo'lavermasligini hisobga olish zarur. Shuning uchun investitsiyalar haqidagi masala ancha qiyin hal etiladigan muammodir, chunki mazkur loyihaning zarurligini, foydaliligini va samaraliligini isbotlash kerak bo'ladi. Bu holatda asosiysi moliyalashtirish manbaini tanlash, uning hajmini, vaqt bo'yicha to'lovlar darajasi va hokazodir. Bu holatda investor o'ziga loyihaning mohiyatini tushuntirib berish, hamkorlik qanday afzallik berishini, va eng asosiysi, ular oladigan eng minimal va eng yuqori foyda miqdorini namoyish qilish talab etiladi. Ushbu ko'rsatkichlarning hammasini investorlarni kapital ajratishga ishontirish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirish kerak.

Innovatsiya loyihasi etarlicha batafsil tuzilishi kerak, chunki bo'lajak investor loyiha bilan tanishganda mo'ljallanayotgan dastur haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi va uning maqsadlarini tushunishi lozim.

Innovatsiya loyihasini ishlab chiqish bosqichlarini quyidagi 3-rasm orqali ifodalash mumkin.



3-rasm. Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish bosqichlari¹

Kontseptual bosqich – bu eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda innovatsion kontseptsiya (mohiyat) to'liq shakllantiriladi, uning ta'rifi beriladi, ishlab chiqarilayotgan loyihaning iqtisodiy samarasi aniqlanadi, intellektual mulk ob'ekti portfeli shakllanadi.

Har bir innovatsiya loyihasini ishlab chiqish foydalanishga mo'ljallangan yoki innovatsiya loyihasi amalga oshirilayotganda ishlab chiqiladigan intellektual

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

mulk ob'ektlari portfelini shakllanishidan boshlanadi.

Innovatsiya loyihasini ishlab chiqarish intellektual faoliyat natijalariga asoslanar ekan, shuning uchun investorlarni (ishlab chiqaruvchilarni) xaridorni jalb eta oladigan, sifatli, yangi innovatsiya mahsulotini yaratish imkoniyati qiziqtiradi. Bunda intellektual faoliyat natijasi egasini va uning ilmiy texnik, texnologik, ayrim hollarda innovatsiya loyihasida foydalanilishi kerak bo'lgan konfidentsial tijoriy ma'lumot (nou-xau) o'z ichiga oluvchi intellektual mulkka bo'lgan huquqini aniqlash muammosi yuzaga keladi.

Innovatsiya loyihasini ishlab chiqish natijasida yaratilgan hamkorlik doirasidagi intellektual mulk huquqlarini taqsimlash muhim masala bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi sharoitida texnologiyalarni ma'naviy eskirish muddati qisqarmoqda, foydalanilayotgan jihozlar (uskunalar) ilm-fanga asoslanganligi va fond xajmi o'sib bormoqda. Shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda innovatsiya faoliyati sohasida innovatsiya loyihasini ishlab chiqarishning eng boshlang'ich ya'ni, kontseptual bosqichida intellektual mulkka tegishli xuquqiy masalalarni tartibga solish maqsadga muvofiq deb xisoblanadi. Ikkinchi bosqichda texnikaning munosib darajasi doirasida berilgan kontseptsiyaga asoslangan innovatsiya mahsulotini ishlab chiqarish imkoniyati isbotlanadi. Ushbu bosqichdan o'tish natijasida stend modellari yoki maketlar yaratiladi. Ishlab chiqish bosqichida innovatsiya mahsuloti sanoat ishlab chiqarishga yaroqliligi tekshiruvi amalga oshiriladi. To'rtinchi bosqich – sanoatda qo'llanilishini aniqlash va ishlab chiqarishga tayyorlash bosqichida tajriba namunasi yoki texnologik jarayon yaratiladi. To'la masshtabli ishlab chiqarish bosqichi bu innovatsiya mahsulotini sanoat ishlab chiqarishga tadbiq etish jarayonidir. Uning natijasi sotishga tayyor mahsulot bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, sifatni yaxshilash va mahsulotni ishonchliligi, uning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqarish jarayonida o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

So'ngi bosqich innovatsiya mahsuloti yoki texnologik jarayonni foydali

hayotining butun muddatini qamrab oladi. Bu bosqichning maqsadi doimiy texnik takomillashtirish yo'li bilan mahsulot yoki texnologik jarayonning maksimal bahosini saqlash hisoblanadi. Bu bosqichda mahsulot yoki jarayon boshqa qo'llash soxalariga tadbiq etilishi mumkin.

Murakkab innovatsiya loyihasi amalga oshirilayotganda har bir bosqich uchun biznes-rejalarni izchillik bilan tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda innovatsion tsiklning har bir bosqich biznes-rejalari dastlabki bosqichlarda jarayonning barcha xislatlari to'g'risidagi bashorat qilingan va olingan ma'lumotlar haqiqiy va to'liqligi keyingi bosqichlarga nisbatan pastroqligi bilan farqlanadi. Bunda turli innovatsiya loyihalarining biznes-rejalar tuzilmasida farqlari bo'lib, ular asosan birlashishga yoki tashkil etuvchi qismlarga bo'linishiga olib keladi.

Innovatsiya loyihasini qay darajada detallashtirish va uning tarkibi bo'lajak dastur va u tegishli soha hajmlariga bog'liq. Masalan, qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish yoki innovatsion texnologiyani joriy etishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, juda batafsil reja ishlab chiqilishi lozim, uning qanchalik batafsilligi innovatsiya dasturining yakuniy mahsuloti murakkabligiga va mazkur mahsulot bozorining murakkabligiga bog'liq. Innovatsiya loyihasining tarkibi, shuningdek, taxminlanayotgan sotuv bozori ko'lamiga, raqobatchilarning bor-yo'qligiga va dastur natijalaridan foydalanish istiqbollari bog'liq.

Innovatsiya loyihasining tarkibiy tuzilishi quyidagi asosiy bo'limlardan iborat bo'lishi kerak:

- innovatsiya loyihasining mohiyati, qisqacha tarzda loyiha jozibadorligining asoslanganligi;
- innovatsiya loyihasini amalga oshiruvchi korxona, uning yuridik maqomi, imkoniyatlari va faoliyatiga oid to'liq ma'lumotlar;
- mahsulot sotish bozori tahlili, raqobatchilar;
- innovatsiya mahsulotining marketing strategiyasi;
- ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy tuzilishi;
- boshqaruvni tashkil etish;

- risklar va uni sug'urtalash;
- moliyalashtirish strategiyasi.

Ayrim hollarda loyihani amalga oshirishda xo'jalik risklar darajasi moliya rejalari tarkibida ajratib ko'rsatilishi mumkin.

Mablag'larni investitsiyalashda maqsadga muvofiqligining asosi bo'lib, maksimal samaraga erishish qabul qilinadi.

Loyihani moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- innovatsiya loyihasining maqsadlari va investorning bozordagi strategiyasiga ularning munosibligi;
- davlat siyosati va innovatsiya loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishga yo'naltirishni hisobga olish bo'yicha uning ustunligi;
- loyihaning iqtisodiy samarasi;
- innovatorning ishbilarmonlik obro'si va statusi;
- riskni minimallashtirish darajasida moliyaviy qo'yilmalarning ishonchliligi.

1.3. Innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning moliyaviy asoslari

Innovatsiya sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadlarni amalga oshirishi, davlatning undagi funktsiyasini aniqlaydi. Innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish jarayonida davlat siyosati quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak:

- xususiy sektorni innovatsiya faoliyatida, uni rag'batlantirish mexanizmida, institutsional qayta o'zgartirish tizimida, intellektual mulk himoyasi va uni xo'jalik oborotiga joriy etishdagi ishtirokini normativ-xuquqiy ta'minlashni ishlab chiqarish va takomillashtirish;
- innovatsiya faoliyatini, ishlab chiqarishni rivojlantirishni, raqobatbardoshlikni oshishi va ilmiy mahsulotni eksportini qo'llab-quvvatlash kompleks tizimini yaratish;

- innovatsiya jarayonlari infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan, informatsion ta'minotni, ekspertiza tizimini, moliya-iqtisod tizimini, ishlab chiqarish – texnologik qo'llab-quvvatlashni, ishlanmalarni oldinga siljish tizimini, kadrlarni tayyorlash va qaytatayyorlash tizimini. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, orqada qolishning sababi mamlakat tadqiqot va ishlanmalarni past imkoniyatliligi emas, balki innovatsiya faoliyati infratuzilmasining zaifligi, tovar ishlab chiqaruvchilar yangilikni raqobat kurashining turi sifatida amalga oshirishga asoslanmaganligidir. Bu esa ilm-fan imkoniyatlariga bo'lgan talabni yo'qolishiga olib keladi;

- kichik yuqori texnologiyali tashkilotlarni muvaffaqiyatli amal qilishi va tashkil etilishi uchun qulay sharoit yaratish va ular faoliyatini boshlang'ich bosqichida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan kichik innovatsiya tadbirkorligini rivojlantirish;

- innovatsiyalarni ijtimoiy va ekologik yo'naltirilganligini tartibga solish.


Innovatsiya faoliyatida davlatning ishtiroki quyidagi jabhalarga olib keladi: davlat ko'pchilik xukumat innovatsion dasturlarini moliyalashtirishda (yoki bevosita moliyalashtirish yoki maqsadli byudjet fondlarining mablag'lari yo'li bilan) ishtirok etadi; davlat buyurtmalari (ITTKIni o'tkazish uchun shartnoma shaklida) keyinchalik mamlakatning iqtisodiyotida keng qo'llaniladigan innovatsiyalarga boshlang'ich talabni ta'minlab beradi; davlat akademik va amaliy fanning samarali o'zaro ta'sirini tashkil etish ishlarida vositachi bo'lib ishtirok etadi hamda sanoat korxonalari va universitetlarning ITTKI sohasida kooperatsiyani rag'batlantiradi; davlat o'zining innovatsiya siyosatida innovatsiya faoliyatini bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlashi kerak (4-rasm).

Innovatsiya jarayonlarini davlat tomonidan bevosita boshqarish usullari ikki shaklda amalga oshiriladi:

- ma'muriy-idoraviy;
- dasturli-maqsadli.

Ma'muriy-idoraviy shakli innovatsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri ko'mak beruvchi mahsus qonun doirasida amalga oshiriluvchi bevosita moliyalashtirishda

namoyon bo'ladi.



4-rasm. Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish usullari¹

Innovatsiyalarni davlat tomonidan nazorat qilishning dasturiy-maqсадli shakli davlatning maqsadli dasturlari hamda kichik innovatsion biznesni aniq

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

moliyalashtirishni aks ettiradi. Bu haqda yuqorida batafsil yoritilgan.

Innovatsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlatning bilvosita nazorati, ayniqsa, innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlarining soliq imtiyozlari va imtiyozli amortizatsiya siyosati ham muhim o'rin egallaydi.

Davlat innovatsiya siyosatida foydalaniladigan bilvosita usullari ham innovatsiya jarayonlarining o'ziga ham ijobiy innovatsiya muhitini yaratishga yo'naltirilgan.

Davlat innovatsiya siyosatida bilvosita usullarni amalga oshirish davlat tomonidan bilvosita moliyalashtirish deb yuritiladi. Uning mohiyati ITTKI natijalariga tijorat shartlari asosida qiziqqan (manfaatdor) investorlar tomonidan moliyalashtirish uchun davlat tashkilotlari tomonidan qulay sharoit yaratishdir. Bilvosita moliyalashtirish soliqlar, kreditlar, amortizatsion siyosat, turli imtiyozlar va rag'batlar orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston iqtisodiyotini zamonaviy rivojlanish bosqichida innovatsiya faoliyatini qaytarmaslik sharti bilan byudjetdan moliyalashtirishni tezkor, qaytarishlik va to'lovlilik asosida byudjet mablag'larni umumiy talabdan istisno (tashqari) taqdim etilishini ko'rish mumkin. Albatta, faqatgina iqtisodiyotning o'sish darajasiga to'g'ri ta'sir etuvchi, hayotiy muhim innovatsion loyihalarni byudjetdan moliyalashtirish zarur.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirishda davlatning innovatsion buyurtmalar portfelini shakllantirish uchun eng universal yondashuv bu – ochiq tender, konkurs va auksionlar o'tkazishdir. Bu hollarda innovatsiya faoliyatining tijoriy tavsifi investorlarning tijoriy qiziqishiga (manfaatiga) javob beradi.

Bu yondashuvning mohiyati shundaki, da'vogar (talabgor) biznes-reja va unda aks ettirilgan marketing tadqiqotlar asosida innovatsiya mahsuloti o'zining to'lovga qobil iste'molchisini va qo'yilmalarni tez qoplash yo'lini topishini isbotlash imkoniyati yaratiladi. Konkursga qo'yilgan innovatsiya loyihalarini davlat–tijorat moliyalashtirish maqsadlarini rivojlantirish uchun ikki mexanizmini amalga oshirish ko'zda tutiladi: investorlarga davlat garantiyalarini va loyihalarni sertifikatlash.

Innovatsiya loyihalarini sertifikatlashga kelsak, uning mohiyati loyiha sifatini tasdiqlash va davlatning moliyaviy ko'magi hajmini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari loyihani sertifikatlash investorlarni, xususan, chet el investorlarini jalb qilish bo'yicha auktsionlar o'tkazish imkoniyatini beradi. Sertifikatlash jarayoni ularni (investorlar)ni loyihalarga bo'lgan ishonchini oshirishini va investitsiya bozorida kapitallar raqobatini yaratishni chet el investorlar bilan tuzilgan shartnomalar aks ettiradi. Innovatsiya bozorida kapitallarni raqobatini yaratish o'z navbatida tijorat krediti foiz stavkasini pasayishiga olib keladi va investitsiyalar samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Ikkinchi mexanizm bu xususiy investorlarga davlat kafolatarini taqdim etish bo'lib, u sertifikatlashdan o'tgan samarali innovatsiya loyihasini amalga oshirishda uzilish holati ro'y bersa, moliyaviy resurslarni qisman qaytarish bo'yicha davlat majburiyatini o'z ichiga oladi. Lekin, bu mexanizmni amalga oshirish uchun Innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning davlat kafolati fondini tashkil etish kerak.

Shu bilan birga, kafolatdan tashqari davlat innovatsiya loyihalarini sug'urtalash tizimlarini samarali faoliyat yuritish va shakllantirish uchun barqaror iqtisodiy muhit yaratadi. Biroq, buning uchun ham sug'urtalovchini ham sug'urtalanuvchini rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar zarur. Masalan, sug'urtalovchini korxonaning soliqqa tortiluvchi foydasidan sug'urta to'lov summasi va mukofotlash yo'li bilan rag'batlantirish mumkin.

Innovatsiyalarni davlat tomonidan bilvosita moliyalashtirish doirasida bojxona bojini to'lash differentsial rejimini qonun asosida mustahkamlash zarur. Bunda bojxona bojini differentsiatsiyalash mahalliy ilmiy mahsulot himoyasi uchun proteksionistik choralarni qo'llash bilan mos kelishi kerak (proteksionistik – biror davlatning o'z milliy iqtisodini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat).

Innovatsiyalarni davlat tomonidan bilvosita rag'batlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu maqsadli nobyudjet fondlar mablag'larini mobilizatsiyasidir.

Innovatsiya faoliyatini boshqarish (tartibga solish) sohasida muhim masala bo'lib, innovatsion infratuzilmani shakllantirishda davlat ishtiroki hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsiya tadbirkorligini rivojlantirishga qimmatli qog'ozlar institutlari va boshqa vositachi tuzilmalar (investitsiya-innovatsiya banklari, fondlar va sug'urta kompaniyalar) infratuzilmani shakllantirishga ko'mak beradi.

Transport va aloqa, kommunikatsiya va informatsion tizimlar milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga xizmat qiladi. Davlat dotatsiyalarini tezkor qisqartirilishi, erkin narx va tariflarni o'rnatilishi (belgilanishi) ularning innovatsiya faoliyati uchun xizmatlarni chegaralaydi.

Innovatsiya infratuzilmasini tashkil etishda innovatsiyan markazlari, ilmiy va texnologik parklar va inkubatorlarni shakllantirish muhim rol o'ynaydi. Bular natijasida davlatning innovatsiya siyosati elementlarini birlashtiruvchi (bog'lovchi) innovatsiyalar o'sishini rag'batlantiruvchi strategiya amalga oshirilmoqda.

Inkubatorlarni tashkil etishdan maqsad kichik va o'rta innovatsiya korxonalari; alohida olim, ixtirochi va mutaxassislariga xususiy (o'zlarining) korxonalarini tashkillashtirishda boshlang'ich yordam berishdir. Inkubatorlar imtiyozli shartlar asosida ularga foydalanish uchun bino, ilmiy jihozlardan foydalanishga va moliyalashtirishga imkoniyat taqdim etadi.

So'nggi vaqtlarda g'arbiy mamlakatlarda innovatsiya markazlarini tashkil etish keng tarqalgan. Innovatsiya markazlari olimlar va ixtirochilar muvaffaqiyatlari bilan tadbirkorlar faoliyatini bog'lashga jalb etilgan. Ular ITTKIning o'tkazish va innovatsiyalarni ishlab chiqishga oid o'zlashtirish uchun umumiy (jamiyat) va xususiy moliyaviy mablag'larni jalb qiladilar.

Ilmiy-texnik mahsulotni korxonalar tomonidan moliyalashtirish yoki korxonaning ichki munosabatlar doirasida ishni bajaruvchilar o'zlarining ya'ni korxonaning ilmiy tadqiqot va konstruktorlik bo'linmalari bo'lganda yoki bajaruvchi tomon bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun qo'llaniladigan korxonaning moliyaviy resurslari o'z va jalb qilinganga bo'linishi mumkin.

O'z manbalari hisobidan innovatsiyalarni moliyalashtirishga quyidagilar kiradi:

- soliq va dividendlar to'lashdan so'ng qolgan taqsimlanmagan foyda;
- amortizatsion chegirmalar;
- aktsiyadorlik kapital;
- ustama kapital.

O'z manbalari hisobidan moliyalashtirishni ko'rib chiqamiz.

Korxonaning ta'sis xujjatlariga muvofiq taqsimlanmagan foyda hisobiga iste'mol fondi va jamg'arish fondi tashkil etadilar. Jamg'arish fondi deb, innovatsiya faoliyatiga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga va korxonaning moddiy texnik bazasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pul mablag'lari tushuniladi. Jamg'arish va iste'mol fondlarini shakllantirish bo'yicha operatsiyalar aktsiyadorlarning (ishtirokchilar) umumiy yillik yig'ilishidagi qarori asnosida namoyon bo'ladi.


Biroq xo'jalik oborotidan pul mablag'larini olinishi va ularni innovatsiyalarni investitsiyalashga yo'naltirish imkoniyatiga faqatgina o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatidan yuqori bo'lgan, mustahkam (barqaror) va doimiy sotishdan pul tushumiga ega bo'lgan dinamik korxonalargina egadirlar.

Yuqorida aytib o'tilgan innovatsiyalarni moliyalashtirish manbai bizningcha qisqa muddatli yoki fondli katta bo'lmagan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maqbuldir. Ko'pgina kapital qo'yilmalar kerak bo'lgan holda ushbu manba faqatgina yordamchi bo'lishi mumkin.

Ochiq yoki yopiq aktsiyadorlik jamiyat shaklida tuzilgan Rossiya Federatsiyasi korxonalari cheklanmagan miqdorda yuridik va jismoniy shaxslarni investorlar sifatida jalb qilib, innovatsiya faoliyati maqsadlari uchun o'z mablag'lar etishmasligida qo'shimcha aktsiyalar emisiya qilish yo'li bilan o'z aksionerlik kapitalini ko'paytirishlari mumkin.

Rossiya Federatsiyasida innovatsiya faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni mablag'lar bilan ta'minlash jamg'armasi va hissadorlik asosidagi byudjetdan tashqari manbalar manfaatdor vazirliklar, idoralar, iqtisodiyot

tarmoqlari, korxona va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan "buyurtma-natija" mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Ushbu davlatda innovatsion investitsiyalashtirish manbalari sub'ektlari quyida (5-rasm) keltirilgan.



5-rasm. Innovatsion investitsiyalash mablag'lari sub'ektlari¹

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadi, tijorat korxonalari, banklar va aholi tomonidan jamg'arilgan xususiy kapitalni unumli foydalanishni boshqarish innovatsiya siyosatni aktivlashtirishga ijobiy ta'sir etadi.

Jalb qilingan moliyaviy resurslar manbalariga quyidagilar kiradi:

- a) obligatsiyalar va boshqa qarzli qimmatli qog'ozlar emissiyasi;
- b) venchurli fondlar mablag'lari;
- v) tijorat banklarining kreditlari;
- g) sug'urta kompaniyalari mablag'lari;
- d) nodavlat investitsiya va pensiya fondlari mablag'lari;

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

e) xorijiy investitsiyalar.

Xorijiy investitsiyalash, haqiqatan ham, O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga ko'mak berishi uchun, uni ilmiy-texnik almashinuvi hamrohi mamlakat ilmiy salohiyatini mustahkamlashga yordam berishi kerak. Shu bilan birga siyosat ham bu sohada iqtisodiyotning perspektiv tarmoqlarida foydalaniladigan texnologiyalar oqimiga yordam beruvchi shunday tartibni ta'minlashi kerak. Agar ularning darajasi O'zbekiston ishlanmalaridan afzalroq bo'lsa, o'z ilmiy-texnik bazani saqlagan holda rivojlantirish hamda o'z texnologiyalari asosida O'zbekiston iqtisodiyotining ilg'or tarmoqlari rivojiga ko'mak beradi.

I bob bo'yicha xulosa

1. Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi.

2. Innovatsiya loyihalari aniq maqsadga ega bo'lib, unga erishishning mavjud imkoniyatlari, ya'ni moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari, vaqt birligi (zamon va makonda) bilan birga doimo intellektual salohiyatga tayangan holda, yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan, aniq ma'lumotlar hisob-kitoblari, tahlillari asosida istiqbolga qilingan bashoratlarni o'z ichiga oluvchi kompleks hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.

3. Innovatsiya loyihasining tarkibiy tuzilishi quyidagi asosiy bo'limlardan iborat bo'lishi kerak:

- innovatsiya loyihasining mohiyati, qisqacha tarzda loyiha jozibadorligining asoslanganligi;

- innovatsiya loyihasini amalga oshiruvchi korxona, uning yuridik maqomi,

imkoniyatlari va faoliyatiga oid to'liq ma'lumotlar;

- mahsulot sotish bozori tahlili, raqobatchilar;
- innovatsiya mahsulotining marketing strategiyasi;
- ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy tuzilishi;
- boshqaruvni tashkil etish;
- risklar va uni sug'urtalash;

moliyalashtirish strategiyasi.

4. Innovatsiyalarning tarixiy rivojlanishi natijasida bugungi jamiyat o'z taraqqiyoti va kelajagini t'minlashda, barcha amaliy tajriba va imkoniyatlardan to'liq foydalanishda o'tmishdagiga nisbatan katta ustunliklarga ega hisoblanadi. Biroq, mazkur jarayonda ham o'ziga xos global tus olgan va olib borayotgan muammolar ham vujudga kelganki, ularni hal etishda, ayrim hollarda esa, sabablarini qidirishda bevosita innovatsiyalarga murojaat qilishga to'g'ri kelmoqda.

II BOB. INNOVATSIYA LOYIHALARNI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlili

O'zbekiston Respublika mustaqillikka erishgan davrdan boshlab iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalash hamda uning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida olib borayotgan faol iqtisodiy siyosati tarkibida innovatsion yuksalish masalasi muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu munosabat bilan ushbu sohani tubdan isloh qilish va rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilib, dastavval, uning zamonaviy tashkiliy-huquqiy asosini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida belgilab olindi. Binobarin, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan, xususan, mahalliy xom ashyolarni qayta ishlash asosida jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsiya loyihalari bajarish bilan respublikamizning barcha ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim institutlari kafedralari, ilmiy bo'limlari shug'ullanib kelayotgan bo'lsa-da, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash va zamonaviylashtirish, ilg'or xorij tajribalarini o'rganish borasida qilinishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar ham mavjud edi. Shuning uchun bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifa huquqiy asosni barpo etishdan iborat hisoblanar edi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mamlakat iste'mol bozorining talablarini to'laroq qondirish olib borilayotgan investitsiya va innovatsiya siyosatiga bog'liq.

Dastlab mustaqil mamlakatda innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 avgustdagi "Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni asos soldi.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, uni amaliyotga qo'llash xorijiy

ekspertlar ishtirokida xalqaro seminarlarda, ularning tajribalariga asoslangan holda sinovdan o'tkazilmoqda.

Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, beg'araz muruvvat va texnik yordam sifatida hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi xalqaro bitimlar doirasida O'zbekiston Respublikasiga beriladigan xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar grantlari bo'yicha bajariladigan ilmiy-texnikaviy va innovatsiya dasturlarini va loyihalarini muvofiqlashtirishni va ularning monitoringini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 yanvardagi "Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar grantlari bo'yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 31-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq 1998 yil 1 yanvardan boshlab:

- xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg'armalar grantlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida bajarilayotgan ilmiy-texnikaviy va innovatsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirish doirasida;

- ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha xalqaro bitimlar doirasida etkazib beriladigan asbob-uskunalar (priborlar, materiallar, axborot va tashkiliy-texnika tizimlari va vositalari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi ko'rsatib o'tilgan asbob-uskunalarining ajratilgan grantlar maqsad va vazifalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi asosida bojxonada rasmiylashtirishda undiriladigan bojxona poshlinasi, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i to'lashdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasida innovatsiya faoliyatlarini rivojlantirish yo'lida ko'p ijobiy ishlar qilingan. Ammo bu amalga oshirilayotgan innovatsion ishlar ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasini iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar talablariga to'liq javob bermayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni takomillashtirish" to'g'risidagi Farmonida ilmiy-texnikaviy faoliyatni tashkil

etishning yangi strukturasi tavsiya qilingan. Unda ilmiy-tadqiqot ishlarini va innovatsiya loyihalarini takomillashtirish zarurligi va grantlar orqali tanlov asosida moliyalashtirish zarurligi ko'rsatilgan.

Ilmiy-tadqiqot ishlari dasturini qisqa, o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish zarurligi belgilangan. Uzoq muddatli 5 yilga belgilangan davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari asosida tabiat va jamiyat rivojlanishining yangi yo'nalishlarini nazariy jihatdan aniqlash asosida amaliyotga o'tish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lsa, 3 yillik ilmiy ish rejalarida fundamental tadqiqot ilmiy ishlarini olib borish asosida yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish asosiy maqsad qilib olinadi. Qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot ishlari asosan 2 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etib, uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonining raqobatdoshligini oshirish asosida ilmiy yangiliklarni nafaqat ichki bozorda balki tashqi bozorga ham mahsulotlarni eksportlik xususiyatlarini amalga oshirish hisobiga erishishdan iborat.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda, mamlakatni demokratik yangilashda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan Ilmiy-tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish ilmiy jamoalar ijodiy faolligi rag'batlantirilishini, ularning sa'y-harakatlari real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilinishini, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb masalalari hal qilinishini, ularning ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarga qaramay, ilmiy-texnika salohiyatining rivojlanish darajasi ortib borayotgan talablarga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar sur'atlariga to'liq javob bermaydi.

Ilmiy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish, ilmiy-texnika ishlarini

moliyalash mexanizmi tubdan qayta qurilishi lozim. Davlat ilmiy-texnika dasturlari, loyihalar iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari rivojlanishi uchun mas'ul vazirliklar va idoralarning faol ishtirokisiz, chuqur va har tomonlama ekspertizasiz, olimlar, mutaxassislar tomonidan keng muhokama qilinmay shakllantirilmoqda va amalga oshirilmoqda.

Ilmiy-texnika tadqiqotlari natijalarini amaliyotga joriy etishga oid ishlarning ahvoli ham qoniqarsizligicha qolmoqda.

Shundan kelib chiqib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori qabul qilindi.

Bu Qarorda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi kamchiliklar keltirilgan:

- ilmiy-texnika dasturlari, loyihalari tegishli muassasalar, olimlar, mutaxassislar tomonidan chuqur tahlil qilinmasligi;
- moliyaviy mablag'larni tor doirada ekspertlar xulosasi asosida taqsimlanishi;
- ilmiy mavzularning maydalanishi va takrorlanishi;
- ilmiy innovatsiya ishlarining olib borish moddiy texnika bazalariga etarli darajada asoslanmaganligi, ilmiy muassasalar, bo'limlar va oliy o'quv yurti kafedralarining ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi markazga aylanmaganligi;
- ilmiy va investitsiya loyihalarini Fan va texnologiya markazi o'rtasida hamkorlik darajasining talabga javob bermasligidir.

Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish vazifalari, zamonaviy fan yutuqlari hisobga olingan holda Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar bilan birga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- vazirliklar va idoralarning ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, Fanlar akademiyasining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

- ilmiy-texnika dasturlari amalga oshirilishini, shuningdek ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari iqtisod, ishlab chiqarish, ta'limning turli sohalarida qo'llanilishini samarali monitoring qilishni tashkil etish;

- ilmiy-texnika sohasida o'zaro foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mamlakat ilm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, respublika ilmiy tashkilotlari, olimlari va mutaxassislarining xalqaro dasturlar va ilmiy loyihalar tanlovlarida qatnashishi uchun ko'maklashish.

Ushbu qo'mita faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa vazirlik va idoralarning ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari tomonidan fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan ilmiy-texnika dasturlari asosida olib boriladi;

- davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, homiylardan tushgan mablag'lar va xo'jalik sub'ektlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomalardan tushgan mablag'lar moliyalash manbalari hisoblanadi;

- davlat byudjeti mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, etakchi tadqiqot markazlariga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalariga ega

bo'lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga ajratiladi;

- Innovatsiya fan-texnika faoliyatini moliyalashtirish jamg'armasini shakllantirish uchun mablag' vazirliklar, idoralar, xo'jalik hisobidagi tuzilmalardan kelib tushadigan mablag'lar, xalqaro grantlar, tijorat banklari va xorijiy moliya institutlarining maqsadli imtiyozli kreditlari bilan bir qatorda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan davlat byudjetidan ajratiladi;

- Fanlar akademiyasi, vazirliklar va idoralar tadqiqot va innovatsiya ishlari uchun ajratiladigan byudjet mablag'larini ilmiy-tadqiqot, ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek amalga oshiriladigan ilmiy-texnika loyihalariga ilmiy-texnika loyihalari ekspertizalari natijalariga qarab tanlov asosida mustaqil taqsimlaydi.

Xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3860-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga innovatsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirishga omili sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga besh yil mobaynida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga, yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi qurilish shaklida ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing ob'ekti qiymatini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida, tegishli soliq davrida amortizatsiya ajratmalarini chiqarib tashlagan holda, ammo soliqqa tortiladigan daromadning 30 foizidan oshmaydigan miqdorda foydadan

olinadigan soliq bazasini kamaytirish huquqi berildi. Shuningdek, ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig'idan ozod etildi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladigan yuridik shaxslar uchun besh yil davomida yagona soliq to'lovi to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etildi.

Ushbu Farmonda ko'zda tutilgan soliq imtiyozlari mazkur xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik uskunalar bo'yicha esa – navbatdagi hisobot soliq davrida uskunalar ishga tushirilgan paytdan boshlab qo'llaniladi.

2007 yil 1 apreldan boshlab olib kiriladigan texnologik jihozlar qonunchilikda ko'zda tutilgan bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan texnologik jihozlar ro'yxatiga muvofiq qo'llaniladi.

Texnologik jihozlarni olib kirishda qo'llaniladigan imtiyozlar, agar texnologik jihozlarni etkazib berish bo'yicha shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, butlovchi va ehtiyot qismlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Biroq, texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, qayd etib o'tilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi bekor qilinadi, byudjetga tegishli soliqlar to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi. Texnologik jihozlar xarid (import) qilingan paytdan boshlab uch yil ichida sotib yuborilgan yoki tekinga berilgan bo'lsa, bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar bekor qilinadi va byudjetga bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklanadi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar yaratish, fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta'minlash maqsadida,

shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu Qarorga muvofiq Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi har yili o'tkaziladi va Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi zimmlariga yuklatildi.

Ushbu farmon asosida Xo'jalik boshqaruvi organlari va korxonalarning modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasi tashkil etildi.

Ushbu farmonga asosan 2013 yil 1 yanvarigacha o'quv va ilmiy-tadqiqot korxonalari va tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari foydadaqi soliq to'lovidan, yagona soliq to'lovidan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)dan va davlatning maqsadli fondiga majburiy to'lovlardan (yagona ijtimoiy to'lovlardan tashqari) amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini xo'jalik sub'ektlari bilan xo'jalik bitimlari asosida ishlovchi sub'ektlar ozod qilinishi belgilangan. Shuningdek, Ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta jihozlash va to'liq jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida olib kelinadigan uskunalari bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvini yig'imlaridan tashqari) ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarorini bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 15 oktyabrdaqi "Texnologiyalar transferi agentligi" davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 228-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi,

Davlat mulki qo'mitasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining "Texnologiyalar transferi agentligi" davlat unitar korxonasini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish;
- innovatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, xorijiy innovatsiya texnologiyalarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish, moslashtirish va mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish;
- ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat sotuvi ob'ekti sifatida ishlab chiqarishga joriy etish loyihalarini tuzish va amalga oshirish;
- ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish sohasida xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni amalga oshirish.

Shuningdek, qarorga ko'ra, ushbu Agentlik o'z faoliyatini moliyalashtirish Agentlikning o'z mablag'lari va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Innovatsiya loyihalari ishlab chiquvchilarini, shuningdek, Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasi doirasida tanlab olingan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqarishga tadiq qilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 maydagi "Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-sonli Qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror asosida:

1. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va Iqtisodiyot vazirligining grant sifatida 400 mln. so'm miqdorida mablag', shu jumladan keyinchalik ularni innovatsion loyihalarni ishlab chiquvchilarga, shuningdek Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika

yarmarkasi yakunlariga ko'ra innovatsion ishlanmalarni tatbiq etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berish uchun Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va korxonalarni tarkibiy o'zgartirish jamg'armasi hisobiga – 300 mln. so'm hamda Savdo-sanoat palatasi hisobiga – 100 mln. so'm ajratildi.

2. Innovatsion ishlanmalarni tanlab olish va ularni moliyalashtirish (qo'shimcha moliyalashtirish) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-916-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkasini o'tkazishni Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish:

- innovatsion ishlanmalarni tugallashga, tajriba sanoat namunalarini yaratishga, dastlabki loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek ularni davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga tatbiq etishga grant mablag'lari ajratish moliyalashtirish shartlarida amalga oshiriladi;

- innovatsion ishlanmalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat sifatida tatbiq etishga grant mablag'lari ajratish tatbiq etish qiymatining 70 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda qo'shimcha moliyalashtirish shartlarida amalga oshiriladi;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda patentlar, litsenziyalar va/yoki amaliy faoliyatda innovatsion ishlanmalardan foydalanish xavfsizligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarning mavjud bo'lishi innovatsion ishlanmalarni tanlab olishning asosiy shartlari hisoblanadi;

- har bir aniq holatda grantlar ajratish shartlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi

(grant beruvchi) bilan innovatsion loyihalar ishlab chiquvchilar hamda innovatsion loyihalarni tatbiq etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida tuziladigan bitimlarda belgilanadi.

Grant mablag'larini ajratishda quyidagi asosiy shartlar belgilangan:

- patent va litsenziyalarning mavjudligi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga sofinansirovanie mavjudligi;
- amaliy faoliyatda innovatsion ishlanmalardan foydalanish xavfsizligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarning mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligini tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 166-sonli Qarori O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi va O'zbekiston Mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi "Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1536-sonli Qarorini bajarish yuzasidan qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyundagi 166-sonli Qaroriga muvofiq Intellektual mulk agentligini moliyalashtirish manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byujdeti mablag'lari;
- patent bojlari, asarlarni va turdosh huquqlar ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov tushumlari hisobiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'lar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Intellektual mulk agentligi yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega bo'lib, o'z hisob raqamlariga ega bo'lgan hamda O'zbekistonda mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Intellectual mulk agentligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Umuman olganda, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish iqtisodiyotning barcha sohalarida yuz bermoqda va alohida tarmoqlarni modernizatsiyalash va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham bu o'z aksini topgan.

2.2. O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlili

O'zbekiston Respublikasi so'nggi 24 yil mobaynida innovatsiya sohasida yangi bilimlarni yaratish, yangi tamoyillarni ishlab chiqish, yirik amaliy izlanishlar olib borishda sanoati rivojlangan mamlakatlardan birmuncha orqada qolayotganini qayd etish bilan bir qatorda, oxirgi vaqtlarda fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirish va uni boshqarish, intellektual salohiyatni yanada ko'tarish, iqtisodiyot taraqqiyotiga zamin yaratuvchi ilmiy ishlanmalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda. Olim va mutaxassislarning fikricha, noyob ixtirolar ilmiy-tadqiqot uchun qulay shart-sharoit mavjud joydagina yaratildi. Shu jihatdan respublikamizni ixtirolar o'lkasi, deb atashga to'la haqlimiz. Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy ishlanmalar va ilg'or g'oyalarning har yili taqdim etilayotganligi bunga asos bo'ladi. Shubhasiz, bu Prezidentimiz rahnamoliklarida mamlakatimizda fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga qaratilayotgan alohida e'tibor, ilm ahliga ko'rsatilayotgan g'amxurlikni yuksak samarasi, albatta.

Innovatsiya faoliyatini rivojlantirishdan ko'zlanadigan maqsad mamlakat ilm-fani va sanoatini innovatsion taraqqiyot yo'liga boshlash, har bir alohida hududlarga o'ziga xos innovatsion izlanishlar markazi mavqeiga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, joylarda ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanuvchi tadbirkorlikni rivojlantirish, ilm-fan, aloqa sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tadbqiq etish natijasida yuksak texnologiyalarning

o'zlashtirilishiga erishish, ilmiy izlanishlar natijalarining tijoratchilik asosida sotilishini ta'minlash, ishlab chiqarish tizimining texnik jihatdan raqobatbardoshligini oshirish, ilm-fan sohasida qilingan kashfiyotlarni, innovatsion g'oya va loyihalarining tayyor mahsulot, jarayon yoki xizmat turi sifatida ichki va tashqi bozorlarga chiqarilishiga erishish, ichki bozorlarda import mahsulotlarining o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarilishini izga solish, turli xil ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal etishdan iboratdir.

Innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qulay muhit va uning jobadorligini oshiruvchi omillar mavjudligi sharoitida ta'minlanadi. Bu esa mamlakatda innovatsiya faoliyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim o'rin egallovchi innovatsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday loyihani ishlab chiqishda u amalga oshiriladigan shart-sharoitlar to'liq o'rganilishi talab etiladi.


Quyidagi 6-rasmda innovatsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi keltirilgan.

Respublikamiz innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan eng muhimi sanaladi. Shu bilan birga bugungi moliyaviy inqiroz sharoitida mamlakatda olib borilayotgan innovatsiya siyosatini amalga oshirish strategiyasini qayta ko'rib chiqish lozim.

O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jahon bozorida milliy mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning erkin savdosini tashqil etish va keskin raqobat sharoitida mamlakatlararo tovar ayriboshlash sohasida o'z o'rnini topishga zamin yaratadi. Buning uchun mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini ko'tarish, birinchi navbatda, iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan, telekommunikatsiya tarmoqlarida texnik darajani tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsulotlarini amaliyotga joriy etishni jadallashtirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Fan va texnikani zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish borasida innovatsiya jarayonlarining amalga oshirilishiga, yuqori texnologiyalarni ishlab

chiqarishga joriy etilishiga bevosita ta'sir etuvchi real omillarni aniqlash juda muhim hisoblanadi.



6-rasm. Innovatsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi⁸

Bunday omillar ko'p qirrali bo'lib, ularga:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;


⁸Abdullaev B. Innovatsiya subektlari faoliyati samaradorligini aniqlash. // "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2005. - № 9. - C. 66-69.

- yangi g'oya va innovatsion loyihalarning soha yoki alohida olingan tarmoq yoki tashqilot maqsadlariga mos kelishini ta'minlash;
- loyihalarni tanlash, ularni ekspertiza qilish va baholashda xolis va samarali tizimini joriy etish;
- samarali boshqaruv va nazorat me'yorlarini ishlab chiqish;
- ijodiy g'oyalar manbaini yaratish;
- tashkilotlarning yangiliklarga nisbatan moyilligini rag'batlantirish;
- ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlarini kafolatlash bilan bir qatorda ularning javobgarligini oshirish va boshqalar kiradi.

Ana shu omillarni umumlashtirib, ularning innovatsiya jarayoniga bo'lgan turlicha ta'sirini ko'rsatish maqsadida omillarning tizimli tavsifi yaratildi.

Innovatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning bunday tavsiflanishi iqtisodiyotda ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'g'ri foydalanish, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar samaradorligini oshirish, noyob texnik ishlanmalari natijalarini amaliyotga keng yoyishda juda muhimligi bilan bir qatorda innovatsiya faoliyatini jadallashtirishda ichki va tashqi ta'sir natijalarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga "ishlab chiqarish omillari" bosqichidan "investitsiya" va "innovatsiya" bosqichigacha bo'lgan davr oraligida ilmiy-texnikaviy imkoniyatlar darajasini belgilash, mavjud muammolarni oldini olish, ularni hal etish, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida innovatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning tizimli tavsifini hisobga olgan holda innovatsiya loyihalari ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan korxonada innovatsiya siyosatining tarkibi va yo'nalishlarini ishlab chiqdik (7-rasm).

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi ilm-fan taraqqiyoti va uning salohiyatini oshirish bilan bog'liq. Lekin, bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy texnikaviy faoliyatni oshirish, xuquqiy jihatdan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash borasida yagona kompleks yondoshuv ishlab chiqilmagan.



7-rasm. Korxona innovatsiya siyosatining tarkibi va yo'nalishlari⁹

⁹Salixov S.A. Innovatsion marketingda tovar va xizmatlar – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 160.

Shuningdek, ilmiy salohiyatni istiqbolda bosqichma-bosqich rivojlantirish, jahon miqyosida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlarni bajarish, ularning natijasini keng tadbqiq etish, ilmiy ishlanmalarning noyoblighi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi yagona tizim barpo etilmagan. Buning uchun yangicha, zamonaviy usullarni o'z ichiga oluvchi boshqaruv tizimini, yangiliklarni amaliyotga joriy etishning tashkiliy tizimini, resurslardan foydalanishni, samaradorlikni oshirishning yangicha usullarini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarish tizimini, ishlab chiqarishni rekonstruktsiya qilish va texnik darajasini ko'tarishga qaratilgan texnik tizimni, xullas, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy tamoyillarni o'z ichiga oluvchi yagona kontseptsiyani yaratish lozim. Bu siyosat ilm-fan va innovatsiya jarayonlarini ishlab chiqarish bilan doimiy bog'lanishini, natijalardan keng foydalanishni va bu sohada zarur me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning innovatsion yo'nalishini belgilashda quyidagi muamolarning echimi alohida ahamiyat kasb etadi:

- ilm-fan va ilmiy tadqiqotlarni boshqarishda korxonalar moddiy-texnika bazasini ko'tarish, yangi zamonaviy texnik asboblarni bilan jixozlash, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni kengaytirish va ularga alohida e'tibor qaratish;

- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini belgilash va ulardan foydalanishda samarali ekspertiza tizimini joriy etish va ijtimoiy yo'naltirilgan tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

- ilm-fan rivojini muayyan darajada qo'llab-quvvatlaydigan huquqiy asoslarni kengaytirish;

- innovatsiya va ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirishda byudjet mablag'lari tanqisligini inobatga olib tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash.

Innovatsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar uni tashkil etish va rivojlantirishga muayyan darajada ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi

bilan quyidagi guruhlarga ajratilgan holda aks ettirilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar¹⁰

Omilar guruhlari	Innovatsiya faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillar	Innovatsiya faoliyatiga ko'maklashuvchi omillar
Iqtisodiy texnologik	Investitsiya loyihalarini moliya- lashtirish uchun mablag'larning etishmasligi; moddiy va ilmiy-texnik bazaning zaifligi, eskirgan texnologiya, zahira quvvatlarining mavjud emasligi; joriy ishlab chiqarish manfaatlarining ustunlik qilishi	Moliyaviy, moddiy-texnika vositalar zahiralari, ilg'or texnologiyalar, zarur xo'jalik va ilmiy-texnik infratuzil-maning mavjudligi; innovatsiya faoliyatini moddiy rag'batlantirish
Siyosiy, huquqiy	Monopoliyaga qarshi, soliq, amortizatsiya, patent-litsenziya to'g'risidagi qonun hujjatlari tomonidan cheklovlar	Qonuniy choralar (ayniqsa, imtiyozlar), innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
Tashqiliy- boshqaruv	Eskirgan tashkiliy tuzilmalar, ortiqcha markazlashuv, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usuli, noaniq axborot oqimlarining ustunlik qilishi; idoraviy yopiq-lik, tarmoqlararo va tashkilotlar-aro o'zaro hamkorlik qilishning murakkabligi; rejalashtirishdagi qat'iylik; yuzaga kelgan bozorlarga yo'naltirilish	Tashqiliy tuzilmalarning qayishqoqligi, boshqaruv demokratik uslubining, ishonchli axborot oqimla-rining ustunlik qilishi, o'zini o'zi rejalashtirish, tuzatishlarga yo'l qo'yish; markazlashgan tizimdan chiqarish, maqsadli muammoli guruhlarni shakllantirish
Ijtimoiy- ruhiy va madaniy	Maqomning o'zgarishi, yangi ish qidirish, faoliyatning turg'un usullarini qayta qurish, hatti-harakat belgilari, yuzaga kelgan an'analarning buzilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqaruvchi o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish; noaniqlikdan qo'rqish, muvaffa- qiyatsizlik uchun jazolanishdan xavfsirash; chetdan kirib keladigan barcha yangi narsalarga qarshilik ko'rsatish.	Ma'naviy rag'batlantirish, jamiyat tomonidan tan olinishi; o'zini ko'rsatish uchun imkoniyatlarni ta'minlash, ijodiy mehnatdan ozod etish; mehnat jamoasida zarur ruhiy iqlim

O'zbekiston Respublikasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish dinamikasini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri bu asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonidir. Chunki, asosiy

¹⁰Innovatsion g'oyalar, texnologiyalari va loyihalar I, II, III, IV, V va VI Respublika yarmarkasi kataloglari. Toshkent: 2009; 2010; 2011; 2012, 2013 va 2014.

kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning muhim funktsiyasi innovatsion xarakterga ega, ya'ni uning yordamida sifatli raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanish asosida asosiy fondlarni innovatsion yangilash, samarali texnologiyalarni yaratish amalga oshiriladi. Investitsiyalar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbasi bo'la turib, innovatsiyalarni amalga oshirishning zaruriy sharti, uning ajralmas qismidir. Innovatsiyalarsiz kapital qo'yilmalar samarsiz va hatto, zararli bo'lishi mumkin, kelgusida raqobatga qodir bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarilishi davom etishi mumkin.

2003-2010 yillar respublikada innovatsion faoliyatni innovatsion loyihalar dasturi asosida bajarilish yo'nalishlari agrosanoat majmui bo'yicha 14 tadan 138 taga, mashinasozlik va asbobsozlik bo'yicha 12 tadan 63 taga, sog'liqni saqlash bo'yicha 8 tadan 113 taga, ekologiya bo'yicha 2 tadan 36 taga, farmakologiya bo'yicha 7 tadan 89 taga, axborot texnologiyasi bo'yicha 2 tadan 102 taga, geologiya va qayta ishlash tarmoqlari bo'yicha 3 tadan 68 taga, energetika bo'yicha 12 tadan 115 taga, kimyoviy texnologiya bo'yicha 12 tadan 91 taga va ijtimoiy yo'nalish bo'yicha 40 tadan 247 tagacha ko'paydi.

Tahlil qilinayotgan davrda mashinasozlik va asbobsozlik hamda ekologiya yo'nalishlaridan tashqari boshqa tarmoqlarda tegishli dasturlar bajarilayotgan loyihalar soni oshib borgan.

Innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqish hajmining o'sib borishi va rivojlanishi ushbu loyig'alarni amalga oshirishga yo'naltirilayotgan mablag'larga ham bevosita bog'liqdir. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasida innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tahlil etilgan (2-jadval).

O'zbekiston Respublikasida YaIMni yaratish hajmi tahlil etilayotgan davrda 3 barobardan ziyodga o'sgan bo'lsa, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'naltirilgan mablag'lar hajmi 2,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida
innovatsion mablag'larning ulushi¹⁹**

Yillar	YaIM (mlrd. sum)	YaIM o'sish sur'ati (%)	Innovatsion mablag'lar (mln. so'm)	Innovatsion mablag'larning YaIMdagi hissasi (%)
2009	48097,0	8,1	3419,4	7,1
2010	61831,2	8,5	4676,7	7,6
2011	77750,6	8,3	5610,2	7,2
2012	96589,8	8,2	6810,2	7,1
2013	118986,9	8,0	8312,5	7,0
2014	144867,9	8,1	9817,2	6,8

Ushbu mablag'larning YaIMdagi hissasi 2009 yilda 7,1 foiz bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 5,7 foizni tashkil etdi va bu pasayish 2010 yildan boshlab kuzatiladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 10-14 foizini tashkil etadi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun unga ajratilayotgan mablag'lar hissasini oshirish zarur.

Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy, me'yoriy-huquqiy kadrlar salohiyati ancha yuqori darajada. Biroq, mazkur salohiyatdan samarali foydalanish ko'rsatkichlari talab darajasida emas. Faoliyat ko'rsatayotgan 222 ta ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik muassasalarining atigi 8,5% innovatsiya faoliyati bilan shug'ullangan. Intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish darajasi ham nisbatan past. Xususan, 2013 yilda kichik biznes korxonalari tomonidan 78 ta patent olingan, xolos (3-jadval).

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalarida 24 ming nafardan ziyod pedagog mehnat qilmoqda, ulardan 11 foizi professor va fan doktori, 31 foizi esa fan nomzodi ilmiy unvoniga ega. Oliy o'quv yurtlarining ilm-fan salohiyati ham samarali natijalar bermoqda. Faqat 2013 yilning o'zida oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida innovatsion loyiha va texnologiyalar ishlab chiqish uchun umumiy qiymati 4,7 milliard so'mdan ziyod shartnomalar tuzildi,

¹⁹ Jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

davlat fan va texnika dasturlari hajmi esa qariyb 6 milliard so'mni tashkil etdi.

3-jadval

Fan-texnologiyalar va innovatsion salohiyatning asosiy ko'rsatkichlari²⁰

№	Innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari	Yillar					
		2009	2010	2011	2012	2013	2014
1.	Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik muassasalari soni	169	171	183	222	222	230
1.1.	Tajriba-konstruktorlik tashkilotlari soni	11	13	14	19	19	21
1.2.	Innovatsion markazlar soni	5	6	7	9	13	17
2.	Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan moliyaviy mablag'lari dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan % da	118,1	122,3	134,1	196,2	136,3	139,8
2.1.	Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlari soni	197	179	194	171	221	301
3.	Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari bilan shug'ullanayotgan ilmiy xodimlar soni	20189	22403	24189	26145	26367	27655
3.1.	Fan doktorlari soni	2212	2311	2590	2721	2989	3001
3.2.	Fan nomzodlari soni	8403	8629	8760	9231	9301	9866
4.	Bajarilayotgan davlat ilmiy-texnika dasturlari soni	1612	1577	1789	1217	1264	1278
5.	Davlat ilmiy-texnika dasturlariga ajratilgan byudjet mablag'lari dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %da	119,6	126,9	135,6	180,5	197,7	199,8
6.	Kichik biznes sub'ektlari tomonidan olingan patentlar soni	53	47	51	69	78	81

Innovatsiya faoliyatini investitsiyalash sohasida O'zbekiston davlat siyosatining shakllanishida asosiy printsip bu ilmiy-texnik taraqqiyot masalalarini echishga urg'u berishdir. Chunki sanoatdagi innovatsiya faoliyati O'zbekiston iqtisodiyoti ilmiy-texnik yutuqlariga moyillik darajasini belgilaydi.

O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirish va unda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Malayziya Hukumati

²⁰ Индикаторы науки, технологий и инновационной деятельности Республики Узбекистан. Комитет по координации развития науки и технологий при Кабинете Министров Республики Узбекистан: Статистический сборник. – Т.: 2014. – С. 120-124.

o'rtasida 2008 yil 17 noyabr kuni "Fan va texnologiya sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Anglashuv Memorandumi tuzildi.

Mazkur Anglashuv Memorandumi tuzilishi tomonlarning har bir mamlakatda amalda bo'lgan qonunlar, qoidalar, yo'riqnomalar va milliy siyosatga amal qilib teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida ikki davlat o'rtasida fan va texnologiya sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish to'g'risida kelishib olishini ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Braziliya Hukumati o'rtasida 2009 yil 28 may kuni Braziliya davlatida tuzilgan "Texnikaviy hamkorlik to'g'risida"gi Bitim 2011 yil 9 iyundan kuchga kirgan bo'lib, Mazkur Bitim quyidagi muhim ahamiyatga ega sohalarida texnikaviy hamkorlikni rag'batlantirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan:

- a) ta'lim;
- b) sog'liqni saqlash;
- v) tabiatni muhofaza qilish;
- g) kommunal xo'jaligi;
- d) suv resurslarini boshqarish;
- e) fan va innovatsiya texnologiyalari;
- j) qishloq xo'jaligi;
- z) energetika;
- i) telekommunikatsiyalar;
- k) va boshqa tomonlar tarafidan belgilangan sohalar.

Bundan tashqari, O'zbekiston BMT bilan hamkorlik asosida 2010-2015 yillarga mo'ljallangan "Innovatsiya siyosati va texnologiyalar transferi sohasida qo'llab-quvvatlash" nomli loyihaning asosiy maqsadi O'zbekistonda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishni BMT Rivojlantirish Dasturi yordamida qo'llab-quvvatlashda iborat. Loyihaning umumiy qiymati 638,566 AQSh dollari va Hukumat tomonidan pul shaklida bo'lmagan 27,300,000 so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston davlati innovatsiya sohasida xorij davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, 2008 yil 10 oktyabrda

Bishkek shahrida MDH davlatlari rahbarlari Kengashi yig'ilishida davlatlar rahbarlari tomonidan "2010 yil MDHda fan va innovatsiyalar yili" deb e'lon qilindi. MDH davlatlari rahbarlari Kengashi qarori bilan 2008 yil 14 noyabrda 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasi tasdiqlandi va uning tarkibida innovatsion hamkorlikka katta o'rin ajratildi.

O'z navbatida, respublikamizda ham MDH davlatlaridagi singari BMT Rivojlanish Dasturi (BMTRD) loyihasi asosida O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontsepsiyasi ishlab chiqilib, unga ko'ra, quyidagi umumiy natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2012-2020 yillarga iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning maqsadli yo'nalishlari²¹

Ko'rsatkichlar	2010 y.	Prognoz parametrlari	
		2012-2015 yy.	2016-2020 yy.
YaIMga nisbatan ilmiy-texnik ishlarga xarajatlar ulushi, %	0,2	1,0	3,0
Yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi (YaIM jami hajmiga nisbatan, %)	11,3	15,0	31,0
Innovatsiya mahsulotlari ulushi (YaIM jami hajmiga nisbatan, %)	2,9	15,0	22,0
Innovatsiya faoliyatiga xarajatlar ulushi (mahsulot hajmiga nisbatan, %)	0,4	2,8	5,0
Umumiy eksportda innovatsiya mahsuloti eksporti ulushi, %	5,76	15,0	28,0
Tabiiy fanlar va injenerlik ta'lim bo'yicha talabalarni qabul qilish ulushi, %	28,7	40,0	45,0
Patentlar soni, har yili xorijiy patent muassasalarida O'zbekiston rezidentlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziluvchi, birlikda	800	1000	1300

4-jadval ma'lumotlari istiqbolli davrlarda O'zbekistonda innovatsiya faoliyatining har tomonlama rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganligi va ishlab chiqilgan Kontsepsiya ijrosi natijasidan yuqori samaralarga erishish belgilanganligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish va rivojlantirish borasida keng qamrovli va istiqbolli siyosatni amalga oshirib

²¹ O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontsepsiyasi asosida tuzildi (www.inno.uz/downloads/publications/concept).

kelmoqda. Bunda, nafaqat, xorij davlatlari amaliyotini tahlil qilib orish bilangina cheklanmasdan, ular va xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatib va amalga oshirib kelmoqda. Bu yuqorida tahlil qilingan jadval ma'lumotlari tasdiqlaganidek, innovatsiya sohasi taraqqiyotida muhim omil bo'lmoqda.

2.3. “Rubicon wireless polimer” innovatsiya loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili

Biz mazkur ishda “Rubicon wireless polimer” qo'shma korxona tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini tahlil qildik. Loyihada qarz oluvchi “Rubicon wireless polimer” qo'shma korxonasi (AQSh) bo'lib, u Germaniyaning “Macninery” firmasining uskunasi sotib olish yo'li bilan polimer va boshqa quyma materiallardan buyumlar tayyorlash va ishlab chiqarishni kengaytirish ko'zda tutilgan. Korxonada ishchilar soni 20 kishini tashkil etadi va O'zbekiston qonunlariga muvofiq mikrofirma hisoblanadi.

Korxona buxgalteriya hisobotlari ko'ra 2008-2010 yillarga ko'ra moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

“Rubicon wireless polimer” qo'shma korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (birlikda)²²

Ko'rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil
Aktivlar	7238220	14010460	6621870
Shu jumladan: asosiy vositalar	3235400	4647010	4621990
O'z kapitali	3795940	5206370	5524730
Tushum	1417130	1092000	16488120
Ishlab chiqarish tannarxi	921220	357230	12452100
Moliyaviy natija	325540	538760	2402050
Sof foyda	325540	429560	747900

Loyihani amalga oshirish uchun, xususan, uskunani etkazib berish

²² “Rubicon wireless polimer” innovatsiya loyihasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

bo'yicha shartnoma qiymatini 100 foiz to'lash uchun 4,5 yil muddatga imtiyozli davrni (12 oy) qo'shgan holda 197000 AQSh doll. hajmidagi kredit olinishi va loyiha bo'yicha 40 ta yangi ish o'rinlari ochish mo'ljallangan.

6-jadal

Loyiha shartnomasining qiymati²³

Nomi	Qiymati, AQSh doll.	Tarkibi, foizda
Uskunalar	175600	89,2
Ehtiyot qismlar	3000	1,5
Vositalar	4500	2,3
Sug'urta, etkazib berish va uskunalar montaji	13900	7,1
Jami	197000	100,0

6-javdal ma'lumotlaridan ko'rinadiki, loyiha shartnomasining umumiy qiymati 197000 AQSh dollarini tashkil qiladi va uning 89,2 foizi uskuna sotib olishga yo'naltirilgan.

7-jadval

Loyihani amalga oshirishda qarz oluvchining o'z mablag'i va O'zsanoatqurilishbank kreditining taqsimlanishi²⁴

“Rubicon wireless polimer”		
Xarajatlar moddasi	Summa	Manba
Qurilish ishlari va hududni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	337 AQSh doll.	Qarz oluvchining o'z mablag'lari
Ijara to'lovi, 1 yilga	10935 AQSh doll.	
Amaldagi uskuna	10179 AQSh doll.	
Sotib olinayotgan dastur ta'minoti	6000 AQSh doll.	
Ishchi kapitali	2743 AQSh doll.	
Moliyaviy xarajatlar	23590 AQSh doll.	
Kutilmagan xarajatlarga zahira hajmi	12539 AQSh doll.	
Jami	66323	
O'zsanoatqurilishbank krediti		
Uskuna	189500 AQSh doll.	Kredit
Ehtiyot qismlar	7500 AQSh doll.	
Jami	197000	

Jadvaldan ko'rinib turganidek, loyiha umumiy qiymatida qarz oluvchining o'z mablag'lari ulushi 66323 AQSh dollariga teng. Bu esa xalqaro moliya

²³ “Rubicon wireless polimer” innovatsiya loyihasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

²⁴ “Rubicon wireless polimer” innovatsiya loyihasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

institutlari talablariga muvofiq keladi.

8-jadval

Innovatsiya loyihasini moliyalashtirish rejasi²⁵

Ko'rsatkichlar	Milliy valyutada	Xorijiy valyutada	Jami	Tarkibi, foizda	
O'z mablag'lari	44563	21760	66323	100	25,2
Qarz mablag'lari	-	197000	197000	100	74,8
Jami	44563	218760	263323		100,0

Loyiha O'zbekiston bozorining turli xil metallardan ishlangan press-form shaklidagi texnologik va murakkab buyumlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan. Qarz oluvchi ushbu bozorda 2004 yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi va bu vaqt mobaynida o'zining buyurtmachilar doirasini shakllantirgan. Tayyor mahsulotning 30 foizi eksportga mo'ljallangan, ya'ni bevosita buyurtmachilar yoki "Industries Ltd" (Izrail) kompaniyasining vositachiligida tashqi bozorda sotiladi.

Loyihada O'zsanoatqurilishbank texnologik uskunani (press-form ishlab chiqarish uchun uch frezerli vertikal qayta ishlovchi markaz) dasturli ta'minoti bilan birga etkazib berish bo'yicha shartnoma qiymatini 100 foiz to'lash uchun O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi OPEK fondi kredit liniyasidan 197000 AQSh doll. hajmidagi kredit taqdim qiluvchi kreditor hisoblanadi.

9-jadval

Kreditni taqdim etish shartlari²⁶

Qarz oluvchi	"Rubicon wireless polimer" qo'shma korxona
Kreditning maqsadli ishlatilishi	Press-form ishlab chiqarish uchun frezerli vertikal qayta ishlovchi markaz sotib olish
Loyiha qiymati	263323 AQSh doll.
Kredit summasi	197000 AQSh doll.
Kreditni taqdim etish davri	12 oy imtiyozli davrni qo'shgan holda 4,5 yil
Foiz stavkasi	OPEK fondi foiz stavkasi + O'zsanoatqurilishbank marjasi
Kredit ta'minoti	Sotib olinayotgan uskuna (uskuna sof qiymatining 60 foiz (105360 AQSh doll.)), "Rubicon wireless polimer" qo'shma korxonasining asosiy vositalari (21000 AQSh doll.) va "Madad" sug'urta agentligining sug'urta polisi (110040

²⁵ "Rubicon wireless polimer" innovatsiya loyihasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

²⁶ "Rubicon wireless polimer" innovatsiya loyihasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

	AQSh doll.). Jami kredit summasining 120foiz miqdorida, ya'ni 236400 AQSh doll.
--	---

Mazkur loyihaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashda pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanildi.

“*Pul mablag'larini qoplash muddati usuli* (Q_M) kichik biznes loyihalari uchun investitsiyalar samaradorligini baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi”¹. Chunki yirik pul kapitaliga ega bo'lmagan tadbirkor uchun investitsiya qilgan mablag'larining tezda qaytishi o'ta muhimdir. Shuning uchun tadbirkorlar investitsiyalash masalasida, birinchi navbatda, qo'yilmalarning qaytish muddatini baholashga qiziqadilar va mazkur usul bir muncha ommabop hisoblanadi. Tadbirkor uchun ham bu usulni amaliyotda qo'llash bir muncha oson kechadi. Bu usul loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslanadi.

“Rubicon wireless polimer” qo'shma korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan loyihaning qoplash muddati 2,8 yilga teng, ya'ni $Q_M = 206015 / 72182,5 = 2,8$ yil.

Pul mablag'larini qoplash muddati usuli investitsiyalar foydaliligini mezoni sifatida jiddiy kamchiliklarga ega: qoplash davri tugagandan keyingi olinadigan pul mablag'lari foydaliligini hamda kelgusi dardagi pul tushumlari qiymatini hisobga olmaydi. Ushbu kamchiliklardan holi bo'lish uchun investitsiyalar samaradorligini hisoblashning barcha asosiy ko'rsatkichlari diskontlash usullarini qo'llash orqali hisoblanadi. Shu bois, ko'p hollarda, *diskontlangan qoplash muddati usuli* (DQ_M) qo'llaniladi. Diskontlangan qoplash muddati usulini hisoblash jarayonida yillik pul tushumlari boshlang'ich davrga keltiriladi:

$$DQ_M = BI_S / DPT_S, \quad (1)$$

bu erda: DPT_S – diskontlangan pul tushumlari summasi.

¹ Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие для вузов - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – С. 154-155.

Biz tahlil qilayotgan loyiha bo'yicha diskontlangan qoplash muddati 5,3 yilga teng, $DQ_M = 206015 / 38765,8 = 5,3$ yil.

Hozirgi kunda amaliyotda kelgusi pul tushumlari qiymatini hisobga oluvchi diskontlashga asoslangan usullar keng qo'llanilmokda. Ulardan biri *sof joriy qiymat (SJQ)* usulidir. Ko'pgina xorijiy adabiyotlarda mazkur usul *sof diskontlangan daromad*, *sof keltirilgan daromad miqdori*, *sof keltirilgan qiymat*, *sof zamonaviy qiymat* deb ham ataladi. Lekin ularning barchasi bitta ma'no va mazmunga ega.

Bu ko'rsatkich quyidagicha hisoblanadi:

$$SJQ = F / (1+R)^1 + F / (1+R)^2 + \dots + F / (1+R)^n - BI_S, \quad (2)$$

bu erda: **SJQ** - sof joriy qiymat; **F** - foyda; **R** - diskont stavkasi; **n** - davr; **BI_S** - boshlang'ich investitsiyalar summasi.

Hisoblangan $SJQ > 0$ bo'lsa, investitsiyalarning foydaliligi diskont me'yorida yuqori bo'ladi, $SJQ = 0$ bo'lsa, investitsiyalarning foydaliligi minimal qoplash koeffitsientiga (yoki diskont me'yori) teng bo'ladi, $SJQ < 0$ bo'lsa, unda investitsiyalarning foydaliligi minimal qoplash koeffitsientidan past bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, SJQ ni hisoblashda, agar pul oqimlari nominal ko'rsatkichlarda berilgan bo'lsa, ya'ni inflyatsiyani hisobga olsa, u holda diskont stavkasi ham nominal bo'lishi lozim, biroq daromad rel miqdorlarda aks ettirilgan bo'lsa, ya'ni inflyatsiyani hisobga olmasa, u holda real diskont stavkasini qo'llash lozim.

Loyiha bo'yicha SJQ quyidagiga teng:

$$SJQ^8 = 60935 / (1+0,15)^1 + 52315 / (1+0,15)^2 + 62482 / (1+0,15)^3 + 70137 / (1+0,15)^4 + 82541 / (1+0,15)^5 + 83038 / (1+0,15)^6 + 83019 / (1+0,15)^7 + 82993 / (1+0,15)^8 - 206015 = 310126,7 - 206015 = 104111,7 \text{ AQSh doll.}$$

Xullas, loyihaga investitsiya qilishning maqbulligini SJQ mezonini qo'llash orqali hal qilish mumkin, ya'ni investitsiya qilish mumkin, agar investitsiyalardan kelgusida kutilayotgan daromadlarning keltirilgan qiymati investitsiyalash xarajatlaridan yuqori bo'lsa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, loyiha iqtisodiy tanlovdan o'tishi uchun ikki shartga muvofiq

bo'lishi lozim: loyihani tatbiq qilishdan kutilayotgan foydaning SJQ salbiy bo'lmasligi, ya'ni $SJQ > 0$ bo'lishi lozim; loyihadan kutilayotgan SJQ muqobil o'zaro ziddiyatli loyihalardan kutilayotgan SJQga teng yoki undan yuqori bo'lishi lozim.

Korxonalarda loyiha qarorlarining samaradorligini baholashda *investitsiyalar rentabelligi (IR)* ko'rsatkichi keng qo'llaniladi. IR keltirilgan samara summasining kapital qo'yilmalar miqdoriga nisbatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich qanday holatda korxona boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Biz tahlil qilayotgan kichik biznes loyihasining investitsiyalar rentabelligi 1,5 koef. teng, ya'ni $IR = 310126,7 / 206015 = 1,5$.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu innovatsiya loyihasi aniq ma'lumotlar asosida puxta hisob-kitob va tahlillar asosida ishlab chiqilgan hamda unin amalga oshirish natijasida o'z samarasini ko'rsatgan.

II bob bo'yicha xulosa

1. O'zbekiston Respublikasida innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, uning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirib borish borasida olib borilayotgan islohotlar buning yaqqol isbotidir. Buning natijasida bugungi kunga kelib amalga oshirilayotgan innovatsiya loyihalari va yaratilayotgan ixtirolar uchun patentlar olish soni yildan-yilga ko'payib bormoqda.

2. O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishda xorijiy davlatlar va xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston bir qator xorijiy davlatlar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolab, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

3. O'zbekistonda innovatsiya mahsulotlarini yaratishga qaratilgan mablag'lar sarfi yil sayin o'sib bormoqda va uning yalpi ichki mahsulotdagi

hajmi o'sishiga ham erishilmoqda.

4. O'zbekiston bugungi kunda MDH va boshqa xorij davlatlari, xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda va MDH davlatlari singari 2012-2020 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontseptsiyasini ishlab chiqildi va u samarali amalga oshirilmoqda.

III BOB. O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYA LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Bugungi kunga qadar dunyo davlatlari amaliyotida iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlari va mexanizmlaridan foydalanib kelinganligini ko'rishimiz mumkin. Ular ichida jahon amaliyotida yuqori samarali va istiqbolli deb qaralgan tajribalar boshqa davlatlar uchun muhim qo'llanma va andozaga aylanmoqda. Mazkur qo'llanmalar tarkibida eng muhimi va mamlakatni o'z taraqqiyoti bilan jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash imkonini beruvchi omil bu innovatsiyalar hisoblanadi.

Innovatsiyalar ilmiy-texnologik o'zgarishlar globallashuvi sharoitida amal qilish maydoniga ko'ra inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab olgan holda turli mamlakatlar va tsivilizatsiyalar o'rtasidagi keskin farqlarni bartaraf etishda uning yutuqlaridan keng foydalanish va har bir mamlakatning innovatsion taraqqiyoti orqali jahon tsivilizatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o'z hissasi va ta'siriga ega bo'lish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, yuqori qudratlarga egaligini ko'rsatib va barcha davlatlarni tobora o'ziga rom etib borayotgan innovatsiyalarni amalga oshirishda tashkil etiluvchi innovatsiya faoliyati umumiy tarzda quyidagi ob'ekt (loyiha)larda namoyon bo'ladi:

- ixtirolar, nou-xau, ilmiy-texnik ishlanmalar asosida yangi ilmiy hajmdor mahsulotlarning tajriba-sanoat namunalarini yaratish, sanoat si novlaridan o'tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash;

- mavjud texnologiyalarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan, tijorat nuqtai nazaridan samarali bo'lgan, mahalliy xom ashyo asosida yangi ilmiy hajmdor mahsulotlarni bozorga olib chiqish;

- inson, hayvon, o'simliklar kasalliklarini davolashning zamonaviy

usullarini o'zlashtirish, yangi turdagi dori-darmonlarni, ularning substansiyalarini va tibbiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish;

- tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo'jalik o'simliklarini etishtirish, ularning selektsiyasi va urug'chiligi sohasida va himoya preparatlarini ishlab chiqarishda samarali texnologiyalarini joriy etish;

- sanoat chiqindilarini hamda ikkilamchi resurslarni qayta ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish;

- yangi axborot texnologiyalarini, dasturiy vositalarni yaratish va ishlab chiqarishni kengaytirish;

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan huquqiy-tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv masalalarini hal qilish;

- ilm-fanning zamonaviy natijalarini yorituvchi original monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash, chop etish va o'quv jarayoniga joriy etish;

- innovatsiya faoliyatini kengaytirishga, intellektual faoliyat ob'ektlarini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan xalqaro seminarlar, konferentsiyalar, ko'rgazmalarni tashkil etish.

Yuqorida keltirilgan innovatsiya ob'ektlari (loyihalari) ustida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar jamiyat ehtiyojlarini qondirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi, siyosiy-huquqiy, ekologik xavfsizligini oshirish hamda ularga doir muammolarni hal etish maqsadlari uchun xizmat qilishi lozimdir.

Shu munosabat bilan bugungi kundagi va istiqbolga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, dunyoning barcha davlatalarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda o'z kelajagini yaratish imkoniyatini ko'rmoqda:

1. Fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar.

2. Biotexnologiya va biomeditsina (agrobiotexnologiya;

geobiotexnologiya; ekobiotexnologiya).

3. Eng yangi informatsion texnologiya va tizimlar (nano-bio-optoelektronika; fotonika; optoinformatika; dasturlashtirish; milliy informatsiya tizimini modellashtirish).

4. Energiya tejovchi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari (yangi energiya tejovchi texnologiyalar; yangi avlodlar energiya tizimi; ekoenergomonitring tizimi).

5. Butkul yangi materiallar (yangi avlodlar kompozitsiyasi; keramika; katalizatorlar; yuqori qattqlikdagi materiallar).

6. Yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi (KALS-texnologiyalar – yangi avlodlar ishlab chiqarish texnologiyalari orasida yaqin o'n yilliklarda markaziy ahamiyat kasb etuvchi texnologiya, innovatsion mahsulotning hayotiylik tsiklining barcha bosqichlari oralig'ida elektron kuzatuvni va ularning aniq bozorlardagi raqobat tebranishlariga tez moslashuvini ta'minlovchi texnologiya; robotli texnika komplekslari; lazerla;, plazmali texnologiyalar).

7. Aviakosmik texnologiyalar, trasport va aloqa vositalarining yangi avlodlari (kosmik navigatsiya tizimlari; transportlarning yangi avlodlari; aloqalarning yangi avlodlari).

8. Mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari (yangi avlodlarning qurollanishi; terrorizmga qarshi belgilangan ikki marta ortiq texnologiya vositalari).

Yuqorida keltirilgan ustuvor va istiqbolli yo'nalishlar innovatsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish, innovatsion faollikni ta'minlash, rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga yangicha yondashish zaruriyatini va talabini keltirib chiqaradi va uni amalga oshirish iqtisodiyotning texnologik talabi, mavjud ilmiy-texnikaviy zaxiralar, resurslar va salohiyatlar hamda ulardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi uyg'unligida ta'minlanishini talab etadi.

Bunda har bir davlat innovatsiya sohasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini amalga oshirishni mamlakatdagi mavjud umumiy salohiyat va

imkoniyat, rivojlanish darajasi va yo'nalishi, ob'ektiv shart-sharoitlar asosida tashkil etadi.

Jumladan, MDH davlatlari rahbarlari Kengashi qarori bilan 2008 yil 14 noyabrda tasdiqlangan 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq O'zbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yo'nalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda:

- yoqilg'i-energetika sohasida;
- yangi transport magistralarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bojxona, informatsion-logistik va servis ta'minotini ishlab chiqishda;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasida "yopiq" tsikli innovatsion texnologiyalar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo'yicha oziq-ovqatning ekologik toza mahsulotlari bozorini shakllantirishda;
- maksimal darajada tabiiy gaz o'rnini egallovchi resurslar va resurs jamg'arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratishda;
- nanomahsulotlarning to'laqonli bozorini shakllantirishda;
- aholi uchun zamonaviy informatsionno-kommunikatsion xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlovchi informatizatsiya sohasida;
- kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirishda.

Bundan tashqari, har bir davlatda innovatsion rivojlanishda mavjud jo'g'rofiy-hududiy, ekologik-tabiiy va boshqa shart-sharoitlarga asoslangan yo'nalishlar ishlab chiqilishi yoki ayrim tanlanga yo'nalishlarga kuchliroq ustuvorlik berilishi ham mumkin. Masalan, jahon okeanini o'zlashtirish (masalan, Rossiya, Yaponiya, Amerika, Xitoy kabi davlatlar); er osti tabiiy boyliklarini qidirib topish (O'zbekiston, Rossiya va boshqa davlatlar); qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan samarali foydalanish (Afrika davlatlari,

O'zbekiston va shu kabilar) shular jumlasidandir.

Innovatsiya sohasini rivojlantirish va ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishga bo'lgan kuchli e'tiborni qaysi davlatda qanchalik yuksakligi va ahamiyatini jahon innovatsiya bozorida turgan o'rni va erishgan ko'rsatkichlari yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, bugungi kunda jahon bozorida ilmtalab mahsulotlar hajmi 2,5 trln. AQSh dollarini tashkil etib, mazkur summaning 39 %ini AQSh davlati mahsulotlari, 30 %ini – Yaponiya, 16 %ini – Germaniya davlati mahsulotlari tashkil etishi, jahonda rivojlangan 7 ta davlat makrotexnologiyalari mazkur bozor hajmining 80 %ini tashkil etishi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

BMT Rivojlanish Dasturi (BMTRD) loyihasi asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontsepsiyasidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarning rivojlanishini muvofiqlashtirish qo'mitasida Fanlar Akademiyasi, vazirlik va idoralarning hamkorligi, mamlakatning etakchi olim va mutaxassislari ishtirokida 2012-2020 yillarda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning sakkizta ustuvor yo'nalishi belgilab olindi. Ular quyidagi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- demokratik huquqiy jamiyat, innovatsion iqtisodiyotning ma'naviy-marifiy va madaniy taraqqiyoti;
- energiya va elektr-energetika zaxiralarini tejash;
- tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;
- zamonaviy agrotexnologiyalarning ekologik jihatlariga e'tibor qaratish va atrof-muhitni asrash;
- tibbiyot va farmakologiya;
- kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar;
- turpoq to'g'risidagi fan (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash).

Bunda fan va ilmiy imkoniyatlar darajasini oshira oluvchi, olingan

natijalarni kelgusida qo'llash nuqtai nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari birinchi navbatda moliyalashtiriladi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida O'zbekistonda bugungi kunda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish, innovatsiya faoliyatining rivojlanish holati, undagi mavjud shart-sharoitlar, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va unga bog'liq istiqbolli strategiyalar asosida hal etilishi dolzarb bo'lgan quyidagi muammolar aniqlandi:

- jahon innovatsiya tizimiga integratsiyalashuv darajasining pastligi, milliy innovatsion tizimning, eng avvalo, innovatsion biznes bilan hamkorlik qilishga yo'naltirilgan maxsus moliya institutlarining etishmasligi;

- innovatsiya g'oyalari ustida ishlash va uni innovatsiya loyihasiga aylantirishga layoqatli, iqtidorli, yuqori malakali mutaxassislarning bu sohada faol ishlashini moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimining yaxshi rivojlanmaganligi;

- innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun boshlang'ich kapitalning teshmasligi;

- davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi doirasida texnologik ustuvorliklarni tanlash va amalga oshirish tizimining past samaradorligi;

- mulk huquqlarini himoyalash amaliyotining yaxshi rivojlanmaganligi va u bo'yicha malakali, xalqaro sertifikatlariga ega bo'lgan mutaxassislarning etishmasligi hamda ularni tayyorlashga bo'lgan e'tiborning qoniqarli darajada emasligi;

- kadrlar muammosi: ilmiy kadrlarning qarib borishi, fanga iqtidorli yoshlarning kirib kelishi sustligi;

- innovatsiya mahsulotlarini yaratishda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar olib borish yuzasidan xorijlik tadqiqotchilar va ixtirochi-ishlab chiquvchilar bilan yaqindan va keng hamkorliklarni yo'lga qo'yish tizimining rivojlanmaganligi;

- yirik yoki kichik korxonalarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik

ishlari bo'yicha izlanishlarni olib borish saviyasining pastligi yoki imkoniyatining yo'qligi: yuqori malakali menejer-mutaxassislarning etishmasligi, texnologik rivojlanish va uni moliyalashtirishga mablag'larning etarli emasligi, o'z mahsulotining xalqaro darajadagi baho/sifat talablariga javob berishiga bo'lgan intilishning yo'qligi;

- ishlab chiqarish korxonalari bilan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida innovatsion hamkorlikni tashkil etish va uni amalga oshirishning qulay mexanizmi yaratilmaganligi;

- ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlar, korxonalar, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlab chiqarish bazasining ham man'an, ham jismonan eskirib ketganligi;

- ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlar, korxonalar, oliy ta'lim muassasalarini zaruriy ilmiy-texnik, informatsion-huquqiy ma'lumotlar va yangiliklar bilan tezkor va to'liq ta'minlash tizimining mavjud emasligi;

- olib borilgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalarining amalda ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan bog'liq uzilishlar mavjudligi va uning samarali ijrosini ta'minlovchi mexanizmning mavjud emasligi va shu kabilar.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish va innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish sifatini oshirish, ularni amalga oshirishni takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion yangiliklar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma'nan eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish;

- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish.

2. Mamlakatda innovatsion infratuzilma – innovatsiya faoliyatining

amalgaga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar)ni tashkil etish lozim.

3. Innovatsiya sohasida kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirishga, ilmiy salohiyatli kadrlarning ijod qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ular mehnatini rivojlangan davlatlardagidan kam bo'lmagan darajada rag'batlantirish tizimini yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

4. Mamlakatda qisqa va o'rta muddatli prognozlarga qo'shimcha ravishda uzoq muddatli (20-30 yillik) ilmiy-texnik, innovatsion-texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish bashoratlarini ishlab chiqish zarur.

5. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun iqtidorli yosh olimlarning kirib kelishi oqimini kuchaytirish, xorijdan kuchli mutaxassis-tadqiqotchilarni jalb etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Xorij davlatlari tajribalaridan kelib chiqib (masalan, MDH davlatlari misolida Fundamental tadqiqotlar Rossiya fondi, Rossiya gumanitar ilmiy fond, Rossiya texnologik rivojlanish fondi, Ilmiy-texnik sohada kichik shakldagi korxonalar rivojlanishiga ko'maklashish fondi, Belorusiya fundamental tadqiqotlar Respublika fondi va sh.k.), mamlakatda innovatsiya faoliyatining yanada tezroq va samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

7. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar ustida ishlash uchun zaruriy barcha informatsion-huquqiy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlovchi maxsus ilmiy-texnik informatsion markazlarni tashkil etish lozim.

8. innovatsiya g'oyalari ustida ishlash va uni innovatsiya loyihasiga aylantirishga layoqatli, iqtidorli, yuqori malakali mutaxassislarning bu sohada

faol ishlashini moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarur.

Yuqorida keltirilgan taklif-tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini yanada faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

III bob bo'yicha xulosa

1. Bugungi kunda jahon amaliyotida dunyoning barcha davlatlarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda o'z kelajagini yaratish imkoniyatini ko'rmoqda: fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar; biotexnologiya va biomeditsina; eng yangi informatsion texnologiya va tizimlar; energiya tejoychi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari; butkul yangi materiallar; yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi; aviakosmik texnologiyalar, transport va aloqa vositalarining yangi avlodlari; mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari.

2. 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq O'zbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yo'nalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda: yoqilg'i-energetika sohasi; yangi transport magistrallarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bo'xona, informatsion-logistik va servis ta'minotini ishlab chiqish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasida "yopiq" tsikli innovatsion texnologiyalar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo'yicha oziq-ovqatning ekologik toza

mahsulotlari bozorini shakllantirish; maksimal darajada tabiiy gaz o'rnini egallovchi resurslar va resurs jamg'arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratish; nanomahsulotlarning to'laqonli bozorini shakllantirish; aholi uchun zamonaviy informatsionno-kommunikatsion xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlovchi informatizatsiya sohasi; kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirish.

3. Olib borgan tadqiqotlari asosida O'zbekistonda bugungi kunda innovatsiya faoliyatining rivojlanish holati, undagi mavjud shart-sharoitlar, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va unga bog'liq istiqbolli strategiyalar asosida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar aniqlandi hamda ularni hal etishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning xorij tajribalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi.

2. Innovatsiya loyihalari aniq maqsadga ega bo'lib, unga erishishning mavjud imkoniyatlari, ya'ni moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari, vaqt birligi (zamon va makonda) bilan birga doimo intellektual salohiyatga tayangan holda, yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan, aniq ma'lumotlar hisob-kitoblari, tahlillari asosida istiqbolga qilingan bashoratlarni o'z ichiga oluvchi kompleks hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.

3. Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun, eng avvalo, quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir: davlat innovatsiya siyosati, investitsiya salohiyati, innovatsiya sohasi, innovatsiya infratuzilmasi, innovatsiya dasturi.

4. Innovatsiya loyihalari g'oyalar, fikrlar va texnik echimlarning ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo'yicha quyidagi tarzda tasniflanadi:

- modernizatsion loyihalar, bunda namuna konstruktsiyasi yoki asosiy texnologiya tub o'zgarmaydi;

- novator loyihalar, bunda yangi buyum konstruktsiyasi turiga va elementlari xossalriga qarab oldingisidan jiddiy farq qiladi (yangi xossalarni qo'shish, masalan, ushbu turdagi buyumlarda ilgari qo'llanilmagan avtomatlashtirish vositalarini, lekin boshqa turdagi buyumlarda qo'llangankiritish);

- ilgarilab boruvchi, bunda konstruktsiya ilgarilab boruvchi echimlarga asoslanadi;

- oldingi va hattoki, yangi funktsiyalarni bajaradigan konstruksiyalar va texnologiyalar.

5. Innovatsiya loyihasini ishlab chiqarish intellektual faoliyat natijalariga asoslanar ekan, shuning uchun investorlarni (ishlab chiqaruvchilarni) xaridorni jalb eta oladigan, sifatli, yangi innovatsiya mahsulotini yaratish imkoniyati qiziqtiradi. Bu innovatsiya loyihasini shilab chiqishga e'tiborni yanda oshirib, uning natijaviyligini ta'minlash mas'uliyatini ham kuchaytiradi.

6. Innovatsiya loyihasining tarkibiy tuzilishi quyidagi asosiy bo'limlardan iborat bo'lishi kerak:

- innovatsiya loyihasining mohiyati, qisqacha tarzda loyiha jozibadorligining asoslanganligi;

- innovatsiya loyihasini amalga oshiruvchi korxona, uning yuridik maqomi, imkoniyatlari va faoliyatiga oid to'liq ma'lumotlar;

- mahsulot sotish bozori tahlili, raqobatchilar;

- innovatsiya mahsulotining marketing strategiyasi;

- ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy tuzilishi;

- boshqaruvni tashkil etish;

- risklar va uni sug'urtalash;

- moliyalashtirish strategiyasi.

7. O'zbekiston bugungi kunda MDH va boshqa xorij davlatlari, xalqaro tashkilotlar bilan innovatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda va MDH davlatlari singari 2012-2020 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontseptsiyasini ishlab chiqildi va u samarali amalga oshirilmoqda.

8. Bugungi kunda jahon amaliyotida dunyoning barcha davlatlalarida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda innovatsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda o'z kelajagini yaratish imkoniyatini ko'rmoqda: fanlararo fundamental tadqiqotlar va prognozlar; biotexnologiya va biomeditsina; eng yangi informatsion

texnologiya va tizimlar; energiya tejovchi texnologiyalar va notraditsion energiya resurslari; butkul yangi materiallar; yangi avlod mashina va texnologiyalari tizimi; aviakosmik texnologiyalar, transport va aloqa vositalarining yangi avlodlari; mudofa-texnika tizimlari va yangi avlodlarining xavfsizlik vositalari.

9. 2020 yilgacha bo'lgan davrga Hamkorlikni iqtisodiy rivojlantirish Strategiyasiga muvofiq O'zbekiston MDH davlatlari bilan quyidagi yo'nalishlarda innovatsion hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda: yoqilg'i-energetika sohasi; yangi transport magistrallarini, trans va Evroosiyo transport koridorlarini shakllantirish, xalqaro transport koridorlari maydonlarida yuklarni tashishning texnologik, bojxona, informatsion-logistik va servis ta'minotini ishlab chiqish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari bazasida "yopiq" tsiklli innovatsion texnologiyalar bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha, inson salomatligi va Er biosferasini saqlashga ongli ravishda va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish g'oyasi asosida xavfsiz oziq-ovqatning yagona xalqaro standartlari bo'yicha oziq-ovqatning ekologik toza mahsulotlari bozorini shakllantirish; maksimal darajada tabiiy gaz o'rnini egallovchi resurslar va resurs jamg'arishning huquqiy shart-sharoitlarini yaratish; nanomahsulotlarning to'laqonli bozorini shakllantirish; aholi uchun zamonaviy informatsionno-kommunikatsion xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlovchi informatizatsiya sohasi; kosmik sohada hamkorlikni chuqurlashtirish va yanada kengaytirish.

Olib borgan tadqiqotlari asosida O'zbekistonda innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion yangiliklar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma'nan eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish;

- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish.

2. Mamlakatda innovatsion infratuzilma – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar)ni tashkil etish lozim.

3. Innovatsiya sohasida kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirishga, ilmiy salohiyatli kadrlarning ijod qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ular mehnatini rivojlangan davlatlardagidan kam bo'lmagan darajada rag'batlantirish tizimini yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

4. Mamlakatda qisqa va o'rta muddatli prognozlarga qo'shimcha ravishda uzoq muddatli (20-30 yillik) ilmiy-texnik, innovatsion-texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish bashoratlarini ishlab chiqish zarur.

5. Ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun iqtidorli yosh olimlarning kirib kelishi oqimini kuchaytirish, xorijdan kuchli mutaxassis-tadqiqotchilarni jalb etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Xorij davlatlari tajribalaridan kelib chiqib (masalan, MDH davlatlari misolida Fundamental tadqiqotlar Rossiya fondi, Rossiya gumanitar ilmiy fond, Rossiya texnologik rivojlanish fondi, Ilmiy-texnik sohada kichik shakldagi korxonalar rivojlanishiga ko'maklashish fondi, Belorusiya fundamental tadqiqotlar Respublika fondi va sh.k.), mamlakatda innovatsiya faoliyatining yanada tezroq va samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

7. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar ustida ishlash uchun zaruriy barcha informatsion-huquqiy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlovchi maxsus ilmiy-texnik informatsion markazlarni tashkil etish lozim.

8. innovatsiya g'oyalari ustida ishlash va uni innovatsiya loyihasiga aylantirishga layoqatli, iqtidorli, yuqori malakali mutaxassislarning bu sohada faol ishlashini moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarur.

Ushbu taklif-tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi mamlakatda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 may.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 avgustdagi "Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 il 20 iyundagi "Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tomonidan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3860-sonli Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-916-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1166-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barkarorligini oshirish xamda yukori xalkaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1536-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29

iyundagi “Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 26-sonli Qarori.

18. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 yanvarda “Xalqaro ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishni, xalqaro va xorijiy tashkilotlar va jamg’armalar grantlari bo’yicha ilmiy dasturlar va loyihalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi 31-sonli Qarori.

19. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi “Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida”gi Qarori.

20. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 7 avgustdagi “Ayrim fanlar chuqur o’rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi 173-sonli Qarori.

21. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 may “Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag’batlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 144-sonli Qarori.

22. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 iyun “O’zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 166-sonli Qarori.

23. O’zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Malayziya Hukumati o’rtasida tuzilgan “Fan va texnologiya sohasida hamkorlik to’g’risida”gi Anglashuv Memorandumi. 2008 yil 17 noyabr.

24. O’zbekiston Respublikasi Hukumati va Braziliya Federativ Respublikasi Hukumati o’rtasida tuzilgan “Texnikaviy hamkorlik to’g’risida”gi Bitim. 2009 yil 28 may, Braziliya davlati.

25. O’zbekistonning BMT bilan hamkorlik asosidagi 2010-2015 yillarga mo’ljallangan “Inovatsiya siyosati va texnologiyalar transferi sohasida qo’llab-quvvatlash” nomli loyihasi.

26. “MDH qatnashchilari – davlatlarining innovatsiya faoliyati uchun

informatsiya” nomli Bitim. 2011 yil 19 may.

27. O'zbekiston Respublikasining 2012-2020 yillarga innovatsion rivojlanish Kontsepsiyasi.

28. Standart otchetnosti po nauchnim issledovaniyam i razrabotkam (Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development - the Frascati Manual, 193 str.), 150 str., OESR, 2002.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

29. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. - T.: “O'zbekiston”, 2005.

30. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 36.

31. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – T: O'zbekiston, NMIU, 2010, 78 b.

32. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

33. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013. – 64 b.

34. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. // “Toshkent oqshomi” gazetasi, 2015 yil 20 yanvar, №11.

IV. Asosiy adabiyotlar

35. Baynev V. F., Saevich V. V. Perexod k innovatsionnoy ekonomike v usloviyax mekgosudarstvennoy integratsii: tendentsii, problemi, belorusskiy opit: Monografiya. – Mn.: Pravo i ekonomika, 2007. –180 s.
36. Balabanov I.T. Innovatsionniy menedjment. – Spb.: Piter, 2001. – 254 s.
37. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskii slovar. – M.: Knizhnyi mir, 2000. – 451 s.
38. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –144 b.
39. Glushchenko V.V., Glushchenko I.I. Issledovanie sistem upravleniya: sotsiologicheskie, ekonomicheskie, prognoznie, planovie, eksperimentalnie issledovaniya. 2-e izd. – M.: OOO NPTs «Krilya», 2004. 232 s.
40. Kadirov A.M., Sevlikyants S.G., Otto O.E., Axmedova A.T. Informatsionno-innovatsionnoe razvitie ekonomiki Uzbekistana. – T.: Iqtisodiyot, 2011. 136 s.
41. Medinskiy V.G. Innovatsionniy menedjment. – M.: INFRA-M, 2002.
42. Oleg Figovskiy. Opit innovatsionnogo razvitiya za rubejom: <http://park.futurerussia.ru>.
43. Popova V.L. Upravlenie innovatsionnimi proektami. Uchebnoe posobie. – S.: INFRA-M, 2009. –337 s.
44. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. –110 b.
45. Fatxutdinov R.A. Innovatsionniy menedjment. – Spb.: Piter, 2004.
46. Folomev A.N. Innovatsionniy tip razvitiya ekonomiki Rossii. – M.: RAGS, 2005. –584 s.
47. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

48.Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010.

49.Gorlova I. Farmrinki stran SNG: itog 2012 goda. // Jurnal “Farmatsevticheskaya otrasl”, fevral, 2013. - №1, S. 106-107.

50.Kuznetsov B. T. Investitsii: ucheb. Posobie dlya studentov vuzov, obuchayushchixsya po napravleniyu podgotovki «Ekonomika». – M.: YuNITI-DANA, 2006. 414 s.

51.“Soliq-info” haftalik ijtimoiy-iqtisodiy gazetasi. 2012 yil 15 dekabr, №50. – B. 1.

52.Suyunov D.X., Ravshanov M.N., Butabaev M.Sh. Korporativnoe upravlenie xozyaystvuyushchix sub'ektov. – T: Akademiya, 2006. – 485 s.

53.Egamberdiev E., Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: TMI, 2003. –186 b.

54.G'ozibekov D., Nosirov E.O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 100 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

55.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2000-2011 yillar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlari.

56.Rossiya Federatsiyasining Davlat statistikasi Federal xizmatining “Rossiya yillik statistika 2012 statistik to'plami”.

57.Indikatori nauki, texnologiy i innovatsionnoy deyatelnosti Respubliki Uzbekistan. Komitet po koordinatsii razvitiya nauki i texnologiy pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan: Statisticheskii sbornik. – T., 2011. – Str. 120-124.

58.European Commission. European Trend Chart on Innovation. Methodology Report on European Innovation Scoreboard 2005.

59.European Innovation Scoreboard. Comparative analysis of innovation performance. 2006.

60. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. –436 r.

61. Innovation Union Scoreboard 2010. The Innovation Union's performance scoreboard for Research and Innovation. - European Commission, 2011.

VII. Internet saytlari

- <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi);
- <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi);
- <http://www.uzscience.uz> (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi);
- <http://worldbank.org/indicator> (Vsemirniy Bank);
- <http://occd.org> (Organizatsiya Ekonomicheskogo Sotrudnichestva i Razvitiya).